



FAKT

✓ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevga energetika tarmog'i oldiga qo'yilgan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari yuzasidan axborot berildi.

✓ "Ayollar, biznes va qonun" indeksida O'zbekiston 43 pog'onaga yuqorilab, 190 davlat orasida 48-o'rinni egalladi.

✓ 1-sentyabrdan alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalarni ta'lim, ijtimoiy yordam va xizmatlarga jalb qilish bo'yicha "oilabay" ishlash tizimi joriy etiladi.

✓ Joriy yilning 1-yarim yilligida tijorat banklari tomonidan 42,6 ming nafar fuqaroga jami 13,1 trln so'mlik ipoteka krediti ajratildi.

YETTIKUNLIK

BARQARORLIK, ADOLAT VA ISLOHOTLAR SUR'ATI

O'tgan bir hafta davomida O'zbekistonning tashqi siyosati, ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy kun tartibi strategik islohotlarning yangi bosqichiga o'tganini ko'rsatdi. Qirg'iz Respublikasiga amalga oshirilgan tashrif, Prezident Shavkat Mirziyoyev boshchiligidagi o'tkazilgan taqdimotlar va hisobotlar energetika mustaqilligi, ijtimoiy himoya, davlat xizmatida adolatni ta'minlash, kadastr xizmatlarini soddalashtirish va oziq-ovqat xavfsizligi kabi eng muhim sohalarni qamrab oldi.

O'ZARO ISHONCH IFODASI

Xalqaro huquqda "ittifoqchilik" davlatlararo aloqalarning eng yuqori pog'onasi hisoblanadi. Bu kelishuv Toshkent va Bishkekning mintaqaviy xavfsizlik, tashqi siyosat va strategik masalalarda bir-birini mutlaq qo'llab-quvvatlaydigan yagona blok sifatida harakat qilishini kafolatlaydi. Ana shu jihatlari bilan u Markaziy Osiyodagi barqarorlikning asosiy ustuniga aylanadi. Siyosiy yaqinlashuvning mustahkam poydevori aynan iqtisodiy va savdo ko'rsatkichlarida namoyon bo'lmoqda. So'nggi yillarda O'zbekiston va Qirg'iziston o'rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi deyarli 10 barobarga oshdi. Erishilgan muvaffaqi-



yatlar bilan cheklanib qolmagan holda, davlat rahbarlari yaqin yillarda o'zaro savdo hajmini 3 milliard dollarga yetkazish vazifasini qo'yidilar. Buning uchun savdodagi tarif va notarif to'siqlar to'liq olib tashlanadi; chegaraoldi savdo zonalarini va sanoat kooperatsiyasi markazlari ("Markaziy Osiyo" kabi) kengaytiriladi.

Fitosanitariya va bojxona tartib-omillari soddalashtiriladi. Bundan tashqari, ikki mamlakat hukumatlari va biznes vakillari tomonidan ustuvor sohalarida yangi yirik ishlab chiqarish va kooperatsiya loyihalari kelishib olindi. Maslahat uchrashuvi shuni yaqqol namoyish etdiki, ilgari tarqoq bo'lgan Markaziy Osiyo bugungi

kunda taraqqiyotning umumiy maqsadlari yo'lida mustahkam birlashmoqda. Bu shunchaki geografik qo'shnichilik bilan cheklanmaydi, aksincha, murakkab xalqaro voqealikka berilgan yagona, qat'iy va oqilona javobdir. Zero, yakka holda global inqirozlar, logistika zanjirlarining uzilishi va iqtisodiy turbulentlikka qarshi turish imkonsiz.

Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining siyosiy irodasi tufayli mintaqada mutlaq ishonch muhiti shakllandi. Tarqoqlik ortda qoldi – endilikda yagona bozor, mustahkam xavfsizlik konsepsiyasi va o'zaro to'ldiruvchi iqtisodiy integratsiya modeli amal qilmoqda.

Maslahat uchrashuvlari formatidagi eng muhim geosiyosiy yangilik – bu Ozarbayjonning ushbu jarayonlarga to'laqonli qo'shilishi bo'ldi.

Ozarbayjonning Maslahat uchrashuvlari formatiga qo'shilishi o'zaro hamkorligimizni sifat jihatidan yangi, makromintaqaviy darajaga olib chiqmoqda. Ushbu qadamni ham geografik kengayish, ham juda chuqur geoiqtisodiy mintiqqa ega voqelik deb baholash mumkin. Ozarbayjon Markaziy Osiyo uchun Kaspiy orqali Yevropa va Janubiy Kavkazga ochiladigan asosiy logistik darvoza hisoblanadi.

(Davomi 2-sahifada)

FAN VA HAYOT



ILMNI BO'LIHSANG – KO'PAYADI

O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi,
"Do'stlik" ordeni sohibi Mirziyod MIRSAYDOV bilan suhbat

– Domla, Siz faoliyat yuritayotgan "Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" Milliy tadqiqot universiteti melioratsiya va suv xo'jaligi bo'yicha ilg'or tadqiqotlar olib borish, mehnat bozorida raqobatdosh, bilimlari va salohiyatli muhandis kadrlarni tayyorlash borasida yurtimizdagi tayanch muassasalardan biri hisoblanadi. Suhbatni mazkur dargoh faoliyatidagi yangiliklardan boshlasak.

– Muhtaram Prezidentimiz joriy yilning 2-aprel kuni "Qishloq va suv xo'jaligi muhandislarini tayyorlash tizimini yanada

takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorni imzoladi. Ushbu hujjatda universitetimiz jamoasi zimmasiga katta vazifalar yuklandi. Bu so'nggi yillarda institutimizning xalqaro reytinglardagi yuqori o'rni, ilmiy salohiyati, va eng muhimi, suv hamda qishloq xo'jaligi uchun yuqori malakali muhandis kadrlar tayyorlashdagi katta tajribasi bilan bog'liq.

Shu salohiyatni inobatga olgan holda, oldimizga yanada ulkan vazifalar qo'yildi.

(Davomi 3-sahifada)

VATAN MANZUMASI

Sharifa SALIMOVA,
O'zbekiston xalq shoiri

VATAN

Bir kuni yo maysa – giyoh bo'lamiz,
Shunda ham holingdan ogoh bo'lamiz.
Shoir qalamiga siyoh bo'lamiz,
Sendan bir dam ayro tushmaymiz, Vatan!

Yo yomg'ir bo'lamiz, bo'lamiz shabnam,
Maysalar kiprigin aylajakmiz nam.
Nogoh xazon misol to'kilganda ham
Sendan bir dam ayro tushmaymiz, Vatan!

Yulduzlar kulgusin ichganda hilol,
Sochlarin daryoda yuvsa majnuntol.
Bir boychechak bo'lib, surgancha xayol,
Sendan bir dam ayro tushmaymiz, Vatan!

Biz singil, yo ini, yoki og'amiz,
Bag'ringda daryo yo tog'dek qolamiz.
G'anim boshiga tosh bo'lib yog'amiz,
Sendan bir dam ayro tushmaymiz, Vatan!

Ko'ksingda qulunlar bo'lib chopamiz,
Archa bo'lib tog'lar bag'rin yopamiz,
Burgut bo'lib cho'qqing izlab topamiz,
Sendan bir dam ayro tushmaymiz, Vatan!

Mayli, tikanlaring qonatsin qo'lim,
Mayli, izg'irinlar qilsinlar zulm.
Sen rozi bo'lsang bas, enajon elim,
Sendan bir dam ayro tushmaymiz, Vatan!

Sendan xayolda ham ketmaymiz nari,
Onasini quchgan farzand singari.
So'ngso'z yozganda ham umr daftari,
Sendan bir dam ayro tushmaymiz, Vatan!

Tug'ing nafaslarin ichganda dunyo,
O'zbek degan nomga to'lganda samo.
Biz bag'ringda yotib, qilgancha duo
Sendan bir dam ayro tushmaymiz, Vatan!

EL ORALAB



ENG KATTA YUTUQ

Toshkent shahri "Katta Qorasuv" MFY rasi,
"Mehnat shuhrati" ordeni sohibasi Naima JABBOROVA bilan suhbat

– Naima opa, ko'p qavatli uylarda mahalla faoliyatini boshqarish qiyin, deyishadi. Ba'zi qo'shnilar bir-birini tanimaydi, kelib-ketuvchi ko'p, oqibat sust, degan gaplarni ko'p eshitamiz. Ayniqsa, bu masala poytaxt g'ijumligida yanada bo'rtib ko'rinsa, ehtimol. Bu mulohazalarga qanday qaraysiz?

– Bunga o'xshash gaplarni biz ham ko'p eshitamiz. Noligan bilan muammo hal bo'lib qolmaydi. Shu mahallada ish boshlaganimga 25 yil to'ldi. O'sha paytda siz aytgan holat bor edi. Hatto, kimdir vafot etsa, to'rt-besh kishidan boshqa odam ta'ziyaga chiqmasdi. Ba'zilar qarindoshlari yetib kelguncha, mayit qarovsiz yotardi. Hozir vaziyat butkul o'zgargan.

To'y-ma'rakada butun mahalla faol ishtirok etadi. Bu nimadan? Oqibatdan!

Avvallari bitta zinadan tushib-chiqadiganlar ham bir-biriga yot edi. Bugun-chi? 17 ta ko'p qavatli uyda istiqomat qiladigan hamma tanish-bilish, hesh-aqrabo – "o'rtada begona yo'q". Nimaning evaziga? Bizda muntazam ommaviy bayramlar o'tkaziladi. Konsertlar, sport musobaqalari, davra suhbatlari tashkil qilib, fuqarolarni taklif etamiz. Tanimasni siylamas, deyidilar. Ko'z ko'zga tushsa, salom-alik bo'lsa, keyin birdamlik paydo bo'ladi.

Mahallaga begona odam yoki shubhali mashinaoralasa, yosh-uqaribirday mahalla idorasiga xabar beradi. Telegramda ham guruhlari, shaxsiy sahifalar ochganman. Xursand bo'ladiganim, yosh bolalarda ham ogohlik tuyg'usi shakllandi.

(Davomi 2-sahifada)



Boshlanishi 1-sahifada.

Davlatimiz rahbari sammitda soʻzlagan nutqida taʼkidlaganidek, biz uchun Markaziy Osiyo, Janubiy Kavkaz va Afgʻonistonni birlashtiruvchi yagona taraqqiyot makonini shakllantirish borasida tarixiy imkoniyat ochilmoqda. Ularning yagona transport-energetika va savdo zanjiriga birlashishi Yevroosiyoning qoq yuragida barqaror rivojlanish, oʻzaro bogʻliqlik va yaxshi qoʻshnichilik uchun mustahkam poydevor yaratadi.



Gap shundaki, Markaziy Osiyo dengiz yoʻllaridan uzoqda joylashgan.

Ozərbayjon mintaqə uchun Yevropa va Janubiy Kavkazga ochiladigan asosiy logistik darvoza va “koʻprik” vazifasini oʻtaydi. Rossiya va Eron atrofidagi geosiyosiy beqarorlik va sanksiyalar fonida Xitoy va Markaziy Osiyo tovarlarini Kaspiy dengizi hamda Ozarbayjon (Boku-Tbilisi-Kars) orqali Yevropaga yetkazib berish – eng xavfsiz va qisqa muqobil yoʻnalishga aylandi. Bundan tashqari, Oʻzbekiston, Qozogʻiston va Ozarbayjon Kaspiy dengizi tubi boʻylab chuqur suv kabellarini yotqizish loyihasini boshladi.

Bu orqali Markaziy Osiyoda ishlab chiqarilgan “yashil” elektr energiyasi Ozarbayjon orqali Yevropaga eksport qilinadi. Boku oʻzining geostrategik joylashuvini

yanada mustahkamlaydi. Alyat xalqaro dengiz porti va temir yoʻllari orqali millionlab tonna Markaziy Osiyo va Xitoy yuklari oʻtadi, bu esa Bokuga katta tranzit daromadi va geosiyosiy ustuvorlik imkoniyatini beradi.

Markaziy Osiyo – 85 milliondan ortiq aholiga ega, iqtisodiyoti va sanoati jadal oʻsayotgan bozor. Mintaqa Ozarbayjon investitsiyalari va savdosi uchun ulkan maydondir. Ozarbayjon Markaziy Osiyoning boy resurslariga (uran, kamyob metallar, qishloq xoʻjaligi mahsulotlari, neft-gaz) toʻgʻridan toʻgʻri va imtiyozli kirish imkoniyatiga ega boʻladi.

Markaziy Osiyo va Ozarbayjon qoʻshilganda dunyo xaritasida yirik kuch markazlari (AQSH, Rossiya, Xitoy, YI) bilan muloqotda oʻz shartlarini qoʻya oladigan mustaqil geopolitik va geoiqtisodiy blok (makromintaqa) paydo boʻlmoqda. Kaspiy mintaqasi va Janubiy Kavkaz xavfsizligi Markaziy Osiyo barqarorligi bilan uzviy bogʻliqdir. Ushbu integratsiya tashqi tahdidlar va terrorizmga qarshi birgalikda harakat qilish imkonini beradi. Mazkur birlik Yevroosiyoning markazida yangi barqarorlik, farovonlik va taraqqiyot shakllanadi.

Markaziy Osiyo endilikda yirik gegemon davlatlar oʻrtasidagi “shaxmat taxtasi” yoki tashqi taʼsir maydoni emas. Mintaqa oʻz qoidalarini oʻzi belgilaydigan mustaqil va kuchli xalqaro subyektaga aylandi. Tashqi hamkorlar bilan muloqotda har bir mamlakat

yagona va jipslashgan “Markaziy Osiyo ovozi” bilan chiqishi uning global muzokaralardagi mavqeyini keskin oshiradi.

Davlat xizmati samaradorligini oshirish va kadastr sohasidagi korrupsiyaviy xavflarni bartaraf etish boʻyicha tub islohotlar eʼlon qilindi. Ish haqining atigi 15% qismi maoshdan va 70% qismi aniq natijaga bogʻlanmagan ustamalardan iborat boʻlgani sababli, bir xil lavozimdagi xodimlar daromadida tengsizlik yuzaga



kelayotgan edi. Yangi tizim 54 ming nafar davlat xizmatchisini qamrab oladi. Hududiy boshqarma xodimlari ish haqi hokimliklardagi oʻxshash lavozimlardan yuqori boʻlmaydi. I yarim yillikda kelib tushgan 1 million arizaning 30 foizi (330 mingtasi) rad etilgan. Bitta masalani hal qilish uchun fuqarolardan 4-6 talab ariza va ortiqcha toʻlovlar talab qilingan. Byurokraziyaga chek

qoʻyish uchun “Bitta ariza – bitta toʻlov” va proaktiv xizmat koʻrsatish tamoyili kiritiladi.

Yechim shundaki, Markaziy apparat xodimlarining 30 foizi tumanlarga tushiriladi. Koʻchmas mulk huquqini toʻliq onlayn roʻyxatdan oʻtkazish hisobiga 500 ming ariza 10-15 kun oʻrniga bir necha soniyada koʻrib chiqiladi.

Noqonuniy qurilishni ixtiyoriy bartaraf etganda va birinchi marta muddat buzilganda jarima oʻrniga ogohlantirish beriladi.

OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGI. GO'SHT VA SUT TANQISLIGINI YOPISSH VA "SMART FARMER"

Aholi soni va turizm oqimining oʻsishi natijasida mamlakatda yillik goʻshtga boʻlgan talab 2 million 150 ming tonnaga yetgan boʻlsa, ishlab chiqarish 1 million 600 ming tonnani tashkil etmoqda (defitsit: 550 ming tonna). Shu munosabat bilan 2026–2028 yillarga moʻljallangan 463 million dollarlik kompleks dastur tasdiqlandi. Unga koʻra, Moʻgʻulistondan 150 ming bosh qoʻy, Xitoy va Yevropadan 100 ming bosh nasilli qoramol va Belarusdan 2 ming bosh mol olib kelinib, qoʻshimcha 44 ming tonna goʻsht olinadi. 432 million dollarlik loyihalar evaziga 2028-yilgacha qoʻshimcha 100 ming tonna parranda goʻshti ishlab chiqariladi.



“Oʻzbekiston chorvadorlar uyushmasi” tashkil etiladi. Fermerlar uchun “Smart Farmer” raqamli ilovasi ishga tushiriladi (onlayn veterinariya chaqirish, sunʼiy urugʻlantirish va SI maslahatlari).

Oʻtgan haftadagi Prezident taqdimotlarining umumiy mantigʻi shuni koʻrsatadiki, davlat tomonidan tizimli muammolarni raqamlashtirish, sunʼiy intellektni joriy etish, byurokraziyani qisqartirish va adolati yondashuv orqali hal qilish modeli tanlangan. Iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlarida (energetika, chorvachilik) ishlab chiqarish hajmini oshirish bilan bir vaqtda, davlat xizmatchilarining mehnatga haq toʻlash tizimi shaffolashtirilmoqda, kadastr va ijtimoiy himoya sohaslaridagi toʻsiqlar olib tashlanmoqda. Bu islohotlar pirovardida aholi turmush farovonligini oshirish va bozorda narxlar barqarorligini taʼminlashga xizmat qiladi.

Iqbol MIRZO

Boshlanishi 1-sahifada.

Masalan, oʻquvchilar yugurib keladi: “Naima opa, anavi oʻrindiqda bitta mast yotibdi” yoki “Koʻcha boshidagi daraxt tagida notanish ayol turibdi”, deb aytadi. Vaziyatga qarab yo 102, yo 103 ni chaqiraman. Mahalla ahli bir-birini tanimasa, qayerdan biladi begona yo tanishni?

Jinoyatchilikning oldini olish boʻyicha ham aholimizning birdamligi havas qilgulik. Bir kun ikki bola kelib, “Uyimizning orqasida toʻrtta bola nimanidir qidiriyapti”, dedi. Yugurib bordim. Yertoʻlaga tushib ketibdi ikkitasi, qolganining koʻzi bejo. Darrov qoʻni-qoʻshnini chaqirdim. Militsiyaga qoʻngʻiroq qildim. Narkotik qidirishyapti-da.

Mahalla – xalokorimiz, suyanchigʻimiz, posbonimiz. “Oʻz mahallangni oʻzing asra!” degan tamoyil bor. Shu tamoyilga mahalla-doshlarimizning hammasi rioya qiladi. Biz asramasak, begona kelib yordam berolmaydi-ku!

– Gap-soʻzlaringizdan 24/7 rejimda ishlashingiz koʻrinib turibdi. Ayol kishi uchun rahbarlikning oʻziga xos qiyinchilik tomonlari bor. Qayerdan kuch topasiz?

– Prezidentimiz butun respublika uchun jon kuydiryapti. Biz bitta mahallani eplolmasak, uyat boʻlmaydimi? Davlatimiz rahbari kecha-yu kunduz ishlaydi. Nimaga boshqalar shunday ishlamaydi? Bizning charchashga, loqayd boʻlishga haqqimiz yoʻq.

– Chorak asr mahallani boshqarish oson emas. Bu saylanadigan lavozim, demak, xalqqa ishlaringiz maʼqul. Oʻtgan davr mobaynida yangi avlodlar ham shakllandi. Ular ham ish tutumingizdan rozi. Ammo jarayon doim bir tekis kechmagandir?

– Bir vaqtlar “Xotin kishi rahbar boʻladimi? Ana xotin-qizlar boʻyicha maslahatchiligini qilsin”, deyidiganlar boʻlardi. Men sizga bir narsani aytay. Yigirma yilcha oldin bir xonadonning oilaviy masalasiga aralashib jiddiy muammoga duch kelganman. Moʻjizaga oʻxshaydi hozir tirik yurganim. Baʼzilar qiyinchilikka uchrasa, ortga qaytadi. Men esa dovonlarni koʻrsam, oshib oʻtgim, zabt etgim kelaveradi. Ishlayman, rivojlanaman degan rahbarga hech qachon oson boʻlmagan. Bugun ishlamay boʻladimi? Uyaladi-ku odam, jim oʻtirishga. Atrofdagi toʻxtovsiz yangilanishlar ketaypti. Davlatimiz kamtarona xizmatlarimni “Mehnat shuhrati” ordeni bilan mukofotladi. Shaxsan Prezidentimizning qoʻlidan oldim. Qayerda koʻrgansiz mahalla raisiga orden berilganini? Bu nima? Bu – avans. Yanada yaxshi ishlashimga, sadoqatli boʻlishimga davlatning ishonchi belgisi. Endi bu eʼtirofni oqlashim kerak.

Har bir lavozimdagi inson bir kun kelib oʻziga oʻzi hisob berishiga toʻgʻri keladi. Bir kun vijdon: “Ey, sen, Prezidentning qoʻlidan orden olganingdan keyin juda oʻzingni bosar-tusaringni bilmay qolmadingmi?”



Mahallangda kam taʼminlangan oila boʻlib turib, sen bir kun sanatoriya borib, bir kun toqqa chiqib, maza qilib yurmadingmi? Nechta muhtojga yordam berding? Murojaatlarning qanchasiga javob berding, qanchasini ijobiy hal qilding yo shunga harakat qilding?” – deb soʻroqqa tutsa, nima deb javob beraman? Odam oʻzidan qochib qutula olmaydi.

Odamlarning bitta ogʻirini yengil qilsangiz, ular duo qiladi. Hurmatni sotib olib boʻlmaydi, zoʻrluk bilan erishib boʻlmaydi. Hozir yoshlarimizning tarbiyasiga ham qoyil qolaman. Bizda bitta oʻzbek tilida,

bitta rus tilida dars beradigan maktab bor. Rus yigitlari ham “Assalomu alaykum!” deb oʻtadi. Oʻzining fikrlarini aytadi. Muhimi, ular mahalla timsolida davlatga, davlat tiliga hurmatini bildiradi. Yoshlar bilan qancha koʻp gaplashsam, shuncha koʻp kuch olaman.

Yaqinda yana bir voqea boʻldi. Hokimiyatga chaqirishib, bir qogʻozni imzolashim kerakligini aytishdi. Oʻqib koʻrsam, mahalla idorasini toʻliq hokimiyatga topshirishim kerakligi haqida dalolatnoma. Mahalla raisida huquqiy savodxonlik va madaniyat yuqori darajada boʻlishi kerak. Men ham oʻz bilganlarimdan kelib chiqib, bu yerda anglashmovchilik borligini aytdim. Masʼul shaxsga yoʻnaltirishdi. Qabuliga kirib, aniqlashtirsam, rostdan ham roʻyxatda xato ketgan ekan. Koʻrdingizmi, aksar hamkasblarimiz hokimiyat nima desa, koʻr-koʻrona ergashib ketadi. Aslida, har bir masalaning huquqiy mohiyatini anglab yetish, rasmiy asoslarini topish kerak.

Mana shu oʻjarligim hammaga ham yoqavermaydi. Ammo shunday boʻlmasam, mahallaga ham, odamlarga ham na yordam bera olaman, na qonuniy ulushini ajratib bera olaman. Joyidan qoʻrqqanlar egilib-bukilib yuraveradi. Meni xalq sayladi. Agar yoqmasam, bir kunda almashiradi odamlar. Yo yaxshi ishlayman, yo ketaman –

mujmallikka koʻnmayman.

Mahallaga raislar kelib-ketaveradi, mahalla qoladi. Eng muhimi, ortingdan nimalar qoldiryapsan? Men masalaga mana shu rakursdan qarayman.

– Naima opa, yurtimizdagi islohotlar nimalarda yaqqol koʻzga tashlanyapti, deb oʻylaysiz?

– Odamlarning kayfiyatida. Bugun aholi bilan gaplashsangiz, yuz-koʻzida halovat, gap-soʻzlarida rozilik bor. Asosiysi, itilish yuqori. Kattalar ham, yoshlar ham nimadir foydali ish qilsam, deydi. Yigit-qizlar katta-katta maqsadlar qoʻyishdan choʻchimaydi. Ularning amalga oshishiga ishonch paydo boʻldi. Shuning oʻzi eng katta yutuq.

Bu oʻzgarishlarga munosib fuqarolik javobini ham bildirishimiz kerak. Mana, yaqinda mustaqilligimizning 35 yilligini nishonlaymiz. Allaqachon mahallalarda “Mustaqillik toʻyi” festivallari koʻtarinki ruhda oʻtyapti. Ilohim, mana shu tinchlik va hurlik abadiy boʻlsin. Tinchlik boʻlsa, hamma narsa topiladi.

Yana bir gap. Odamlar sabrni unutilib qoʻymasin. Hayot soʻqmoqlari bir baland, bir past boʻladi. Xalqimiz uzoq-yaqin tarixda qanday ogʻir davrlarni sabr bilan yengib oʻtgan, endi yashaydigan zamon kelganda shoshqaloqlikka berilmaylik. Oilalarimiz mustahkam boʻlsin. Aholiga



Albatta, bugungi murakkab zamonda yoshlarimizni turli sinovlarga chidamli, vatanparvar insonlar etib tarbiyalash, xalqimizni yanada birlashtirish va jipslashtirishda, hech shubhasiz, oʻzini oʻzi boshqarishning noyob tizimi boʻlgan mahallaning oʻrni va ahamiyati katta.

**Shavkat MIRZIYOYEV,
Oʻzbekiston Respublikasi
Prezidenti**

befarqlik kasali yuqmasin. Mana shu jonajon Vatanimizning tinch boʻlishida, rivojlanishida har bir inson oʻzining daxldorligini sezishi kerak.

Mahalla raislariga sabr-toqat, shijoat tilayman. Hech narsadan qoʻrqmaslik kerak. Agar yurtimizning, xalqimizning manfaati koʻzlanadigan boʻlsa, sobitqadamlik bilan ish koʻrish lozim. Biz hamma-miz mamlakatimizda boʻlayotgan ezgu islohotlarga yelkadosh boʻlishimiz kerak.

– Ezgu tilaklaringizga yetib yuring! Samimiy suhbat uchun tashakkur!

**Zarnigor IBROHIMOVA
suhbatlashdi.**





ILMNI BO'LSHANG – KO'PAYADI

Boshlanishi 1-sahifada.

Xususan, yaqin istiqbolda xalqaro reytinglarda “TOP-300”talikdan joy olish, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasini kuchaytirish, xorijiy talabalar sonini oshirish hamda xalqaro investitsiyalarni jalb etish kabi strategik vazifalar belgilandi.



Qarorning yana bir muhim jihati – zamirida strategik masala bo'lgan suv xavfsizligi va muhandislik salohiyatini mustahkamlash maqsadi yotadi. Bu soha uchun puxta bilimli, zamonaviy fikrlaydigan muhandislar tayyorlash nafaqat ta’lim muassasasining, balki milliy taraqqiyotning muhim talabi. Shu bois, universitetimizda o'quv jarayonlarini yangilash, dual ta’limga mos dasturlar ishlab chiqish, professor-o'qituvchilarni hududlarga maslahatchi sifatida jalb etish borasida keng ko'lami ishlar boshlab yuborilgan. Har qanday yirik maqsad yo'lida muayyan sinov va to'siqlar bo'lishi tabiiy. Lekin Prezidentimiz bu vazifalarni oldimizga qo'yar ekan, uni bajarish uchun imkoniyat ham yaratib berdi.

Moddiy-texnik baza masalasiga kelsak, bu borada ham salmoqli ishlar amalga oshirilgan. Zamonaviy laboratoriyalar shakllantirilgan, ilg'or uskunalar olib kelingan. Masalan, hatto nazariy yo'nalishlar bo'yicha ham O'zbekistonda kam uchraydigan laboratoriya bazasi yaratildi. Nazariy mexanika, materiallar qarshiligi kabi fanlarni amaliy tajribalar bilan bog'lash imkoniyati mavjud. Seysmoplatforma kabi murakkab o'quv-ilmiy uskunalar talabalar nazariy bilimini amaliyot bilan mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Bu esa ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqiyapti.

Menimcha, eng muhim omil – inson resursi. Muassasada ilmiy va pedagogik salohiyat yetarli. Professor-o'qituvchilar va yosh tadqiqotchilar o'rtasida ilmiy maktablar shakllangan. Agar barchamiz bir maqsad atrofida birlashib, tizimli va hamjihat ishlasak, belgilangan vazifalarni bajarishimizga ishonaman.

– O'zbekiston ilm-fanida mexanika yo'nalishining bugungi o'rni va jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyatini qanday baholaysiz?

– Mexanika fanining jamiyatdagi o'rni nihoyatda yuqori va fundamental ahamiyatga ega. U fizika, kimyo, biologiya kabi tayanch fanlar qatorida turadi. Chunki hayotdagi ko'plab texnologik, sanoat va muhandislik jarayonlarining asosi mexanik qonuniyatlarga borib taqaladi. Bugun inshootlar qurilishidan tortib mashinasozlik, aviatsiya, energetika, transport tizimlari, irrigatsiya va sanoatgacha bo'lgan deyarli barcha sohalarida mexanika hal qiluvchi rol o'ynaydi. Har qanday konstruksiya, bino, ko'priq, samolyot, dvigatel yoki murakkab texnik tizim, avvalo, mexanika qonunlari asosida hisoblanadi, loyihalanaadi va xavfsizlik nuqtayi nazaridan baholanaadi. Shu bois, bu fan nafaqat nazariy, balki bevosita amaliy taraqqiyotning ham tayanchi hisoblanadi. Xususan, mexanikaning asosiy vazifalaridan biri – konstruksiya va inshootlarda yuzaga keladigan kuchlanish va deformatsiyalarni tahlil qilish, ular mustahkamligi, ishonchiligi va uzoq muddat xizmat qilishini ta'minlashdir. Agar ana shu ilmiy hisob-kitoblar bo'lmasa, yirik inshootlar yoki texnik tizimlarda xavf va nosozliklar kelib chiqishi mumkin.

Shuni ham ta'kidlash kerakki, mexanika faqat bitta oliygo'ha yoki ilmiy markaz doirasidagi fan emas. U barcha muhandislik yo'nalishlarining poydevori. Texnika, transport, to'qimachilik, irrigatsiya va boshqa ko'plab oliy ta'lim muassasalarida aynan shu fan orqali bo'lajak muhandislar shakllanaadi.

– Siz ilmiy faoliyatingizni deformatsiyalanuvchan qattiq jism mexanikasi yo'nalishi bo'yicha tanlangansiz. Bu murakkab va fundamental yo'nalishni tanlashingizga nima turtki bo'lgan?

– Bu yo'nalishga qiziqishim aslida ancha erta, talabalik davrimdayoq shakllangan. Men qishloq maktabida tahsil olganman, undan so'ng Toshkent aviatsiya texnikumiga o'qishga kirganman. Aynan shu dargohda samolyotlar, aviadvigatellar, ularning ishlash prinsipi va eng muhimi, xavfsizlikni ta'minlash masalalari bilan yaqindan tanishdim. O'sha paytdan boshlab konstruksiyalar mustahkamligi, ularning chidamliligi va umrboqiyiligi masalalari menda katta ilmiy qiziqish uyg'otgan. Chunki aviatsiyada har bir detal, har bir konstruksiya elementi aniqlik va ishonchlilikka tayanadi. Shu muhit meni deformatsiyalanuvchan qattiq jism mexanikasi tomon yetakladi.

Keyinchalik Toshkent politexnika institutida muhandislik ta'limi, undan so'ng matematika yo'nalishidagi chuqur nazariy tayyorgarlik bu qiziqishni ilmiy yo'nalishga aylantirdi. Fanlar akademiyasidagi faoliyatim, Moskvadagi aspirantura, nomzodlik va keyinchalik Novosibirskda doktorlik dissertatsiyasi himoyasi – bularning barchasi aynan shu yo'nalishdagi izlanishlar bilan chambarchas bog'liq bo'ldi.

Deformatsiyalanuvchan qattiq jism mexanikasining amaliy ahamiyati juda katta. Aslida bu yo'nalish xavfsizlik va ishonchlilik fanidir. Har qanday inshoot – bino, ko'priq, to'g'on, gidrotexnik obyekt, samolyot yoki sanoat qurilmasi – mustahkam bo'lishi, tashqi ta'sirlarga bardosh berishi va uzoq muddat xizmat qilishi kerak. Ana shu talablarning ilmiy asosi ayni shu fan orqali ta'minlanadi.

Masalan, to'g'on qurilmoqda – u suv bosimiga, seysmik ta'sirlarga, vaqt o'tiliga bardosh bera olishi kerak. Samolyot yaratilmoqda – uning har bir elementi yuklama ostida qanday ishlashi oldindan hisoblanishi zarur. Agar bu ilmiy hisob-kitoblarni puxta bo'lmasa, xavf-xatarga olib kelishi mumkin. Shu bois, bu yo'nalish nafaqat nazariy ilm, balki inson xavfsizligi, yirik inshootlar ishonchiligi va zamonaviy muhandislik taraqqiyotining fundamental asosi hisoblanadi.

– 55 yildirki, mazkur sohada faoliyat olib boryapsiz. Siz ishlab chiqqan ilmiy modellar zamonaviy muhandislik tizimlarining qator yo'nalishlarida samarali qo'llanmoqda. Mehnatlaringizning amaliyotdagi foydasini ko'rganda boshqacha his o'tsa kerak yurakdan.

– Olim mehnati inson qadri va olam farovonligiga qaratilgan bo'lishi kerak. Ilmiy izlanishlarim, ayniqsa, doktorlik tadqiqotlarim asosan inshootlarning seysmik bardoshlilikini baholash va mustahkamligini oshirish masalalariga qaratilgan. Bu yo'nalishda ilgari mavjud yondashuvlarga ayrim ayrim nazariy

qarashlarni kiritishga harakat qilganman. An'anaviy yondashuvlarda zilzila ta'siridan inshootga uzatilgan energiya asosan materialning ichki xossalari, ya'ni, ichki dissipatsiya hisobiga so'nadi, degan qarash ustuvor edi. Men tadqiqotlarimda bu jarayonga qo'shimcha muhim omil borligini ilmiy asoslashga harakat qildim – zilzila energiyasining ma'lum qismi konstruksiya tebranishi natijasida to'liqin ko'rinishida tashqariga chiqib ketadi va shu orqali ham energiya yutiladi.

Bu nazariy yondashuv seysmik hisob-kitoblarda yanada aniqroq modellar qurish imkonini beradi. Eng muhimi, bu faqat nazariy yutuq emas, uning amaliy natijalari ham bor. Bu modellarni, avvalo, seysmik bardoshli inshootlarni loyihalash, gidrotexnik obyektlar, murakkab muhandislik konstruksiyalari, sanoat va fuqaro inshootlari xavfsizligini baholash kabi yo'nalishlarda samarali qo'llash imkonini mavjud.

Muhim afzalliklaridan biri – konstruksiyalar mustahkamligini ishonchli ta'minlash bilan birga, material sarfini optimallashtirish imkonini berishidir. Ya'ni, ortiqcha zaxira bilan emas, ilmiy asoslangan optimal yechim bilan xavfsizlikka erishish mumkin. Bu esa iqtisodiy samaradorlik ham beradi. Ayniqsa, zilzilaviy hududlarda bu yondashuv juda muhim. Chunki bu yerda masala faqat qurilish emas, inson xavfsizligi bilan ham bog'liq.

Quvonarlisi, bu nazariya bugun faqat mening ishlarim doirasida qolib ketgani yo'q. Shogirdlarim va yosh tadqiqotchilar tomonidan bu yo'nalish rivojlanmoqda. Xususan, O'zbekiston Fanlar akademiyasi tarkibidagi Mexanika instituti va bizning institutda bu boradagi ilmiy izlanishlar davom etmoqda, ma'lum natijalar olinmoqda. Menimcha, ilming qadri nazariyadan amaliyotga o'tib, jamiyat manfaatiga xizmat qilganda oshadi.

– Bugun sun'iy intellekt deyarli barcha sohalarini egallayotgan bir vaqtda Siz faoliyat yuritayotgan ilmiy yo'nalishda ular qanchalik yordam bermoqda? Shu bilan birga, yoshlar orasida ularga haddan ortiq suyanib qolish holatlari kuchaymayaptimi?

– Bu tabiiy jarayon. Bizning sohada ham uning imkoniyatlari sezilarli darajada kengaymoqda. Hisoblash usullarini tanlashda, muqobil yechimlarni ko'rishda, murakkab jarayonlarni tahlil qilishda, hatto ayrim modellashirish yondashuvlarini taklif etishda sun'iy intellekt muhim yordamchi vositaga aylanib boryapti.

Biz ham undan foydalanamiz. Ayrim hisoblash algoritmlarini tanlash, baholash jarayonlarini optimallashtirishda u yo'l-yo'riq ko'rsatishi mumkin. Masalan, qaysi usul ma'quulroq, qaysi yondashuv aniqroq natija berishi mumkin – bu borada sun'iy intellekt foydali tavsiyalar beradi. Lekin men bir narsani doim ta'kidlayman: sun'iy intellekt ilmiy tafakkurning o'rni bosa olmaydi. Asosiy matematik modelni, baribir, olimning o'zi yaratadi. Chunki model qurishdan oldin fizik jarayonni tushunish, hodisaning mohiyatini anglash kerak. Bu esa fundamental bilim va ilmiy mushohadani talab qiladi.

Sun'iy intellekt tayyor vosita sifatida yordam berishi mumkin, lekin u real jarayonning barcha nozik jihatlarini har doim ham to'liq qamrab ololmaydi. Agar fizik model to'g'ri tushunilmasa, matematik model mukammal bo'lmaydi, natija ham ishonchli chiqmaydi. Shuning uchun men sun'iy intellektni ilm o'rni bosuvchi emas, balki ilimga xizmat qiluvchi vosita deb bilaman. Kelajakda uning roli yanada ortadi, bunga shubha yo'q. Muhimi, undan to'g'ri foydalanishdir.

Siz aytgan ikkinchi masala ham juda dolzarb. Ha, ayrim yoshlar orasida tayyor yechimlarga suyanib qolish holatlari kuzatiladi. Bu faqat sun'iy intellekt emas, umuman, raqamli muhit ta'siri bilan bog'liq. Bugun chalg'ituvchi vositalar ko'p – telefon, ijtimoiy tarmoqlar, ortiqcha axborot oqimi. Ba'zida vaqt ilm olishga emas, mayda narsalarga sarflanib ketadi.

Shu bilan birga, men yoshlarimizga ishonaman. Juda iqtidorli, fidoyi, kelajakda kuchli muhandis, olim bo'ladigan yoshlar ko'p. Ularning orasida juda yaxshi natija ko'rsatayotganlari bor. Men yoshlarga bitta fikrni doim aytaman: hech bir fan ortiqcha emas. “Bu menga kerak emas”, degan yondashuv ilmga yarashmaydi. Fundamental bilimlar bir-biriga bog'liq. Katta yutuqlar aynan shu poydevor ustida quriladi.

– Siz o'qitadigan fanlar asosan nazariy yo'nalishlarga mansub. Bun-

day murakkab fanlarni chuqur o'zlash-tirish uchun laboratoriya va amaliy mashg'ulotlar qay darajada yo'lga qo'yilgan?

– Ko'pchilik nazariy fan deganda uni auditoriyadagi formulalar va hisob-kitoblar bilan bog'laydi. Aslida, muhandislik fanlarida nazariya va amaliyot bir-biridan ajralmaydi. Bizning kafedramizda nazariy mexanika, materiallar qarshiligi, elastiklik nazariyasi, qurilish mexanikasi, inshootlarning zarbalarga bardoshlilik, matematik modellashirish kabi fundamental fanlar o'qitiladi. Bular, albatta, chuqur nazariy tayyorgarlikni talab qiladi. Shu bilan birga, biz bu bilimlarni laboratoriya tajribalari orqali mustahkamlashga alohida e'tibor qaratamiz.

Men faxr bilan ayta olamanki, kafedramiz laboratoriyasi bu yo'nalishda mamlakatdagi eng yaxshi va eng mukammal laboratoriyalardan biri hisoblanadi. Davlat tomonidan yaratilgan imkoniyatlar bilan birga, o'z tashabbusimiz bilan ham zamonaviy uskunalar olib kelganmiz. Hatto xalqaro grantlar orqali qo'shimcha laboratoriya jihozlari xarid qilingan.

Bizning yondashuv oddiy: har bir nazariy mavzu amaliy tajriba bilan mustahkamlanishi kerak. Chunki nazariyada eshitilgan narsa vaqt o'tib unutilishi mumkin, ammo laboratoriyada ko'rilgan va qo'l bilan bajarilgan tajriba xotirada mustahkam qoladi.

Biz o'z kuchimiz bilan seysmoplatforma ham yaratganmiz. Unda real gidrotexnik inshootlar, jumladan, Pskom to'g'oni modeli asosida zilzilaviy jarayonlar modellashiriladi. Talabalar shu yerda nazariyada o'rgangan hodisalarni amalda ko'radi – qaysi nuqta xavfli, qaysi konstruktiv yechim barqarorroq, bularni tajribada anglaydi. Chunki faqat nazariy bilim bilan mukammal muhandis tayyorlab bo'lmaydi. Nazariya laboratoriyada sinovdan o'tmasa, bilim yuzaki bo'lib qolishi mumkin.

Biz shu tamoyil asosida nafaqat laboratoriya bazasini yaratdik, balki shu fanlar bo'yicha darsliklar, uslubiy qo'llanmalar ham tayyorladik. Natijasi ham bor, talabalarimiz nazariy mexanika va materiallar qarshiligi bo'yicha xalqaro va mintaqaviy olimpiadalarda yuqori natijalarni ko'lga kiritib kelmoqda.

Men boshqa oliygo'ha rektorlariga ham aytganman: laboratoriyangiz bo'lmasa, keling, biznikidan foydalaning, darsliklarimizdan foydalaning, kerak bo'lsa, tekin beramiz. Chunki ilmni bo'lishsang – ko'payadi.

– Ustoz, Siz suhbat davomida alohida ta'kidlagan yana bir dolzarb masala – inshootlarning seysmik bardoshlilikini baholashda nazariya bilan bir qatorda tabiiy, ya'ni, real sharoitdagi sinovlarni qayta tiklash zarurati bor...

– Bu ko'p yillardan buyon meni tashvishlantiradigan masalalardan biri. Chunki seysmik xavfsizlik masalasi faqat nazariy hisob-kitob bilan tugamaydi. Bu yo'nalishda biz tabiiy sinovlar masalasiga jiddiy qaytishimiz kerak. Oldingi davrlarda, ayniqsa, yangi turdagi ko'p qavatli inshootlar yoki muhim konstruksiyalar qurilishdan oldin real sinovlardan o'tkazilardi. Maxsus vibromashinalar yordamida sun'iy tebranish hosil qilinib, inshootning zilzilabardoshligi amalda tekshirilardi. Faqat shundan keyingina u ommaviy qurilishga tavsiya etilardi. Bu juda katta ilmiy-amaliy maktab edi. Ustozlarimiz, jumladan, Abdurashidov kabi olimlar bu borada sobiq ittifoq qiyosida yetakchi bo'lgan. Ular ko'p maqatli binolarni real sharoitda sinab, keyin loyiha yechimlarini tavsiya qilgan. Afsuski, bugun bu yo'nalish ancha sustlashib qolgan. Hozir yangi model va texnologiyalar joriy qilinmoqda. Bu yaxshi, lekin haqiqiy xavfsizlik uchun ayrim strategik yoki ommaviy tipdagi inshootlar bo'yicha real obyektning o'zida tabiiy sinovlar qayta tiklanishi kerak. Axir, mustahkamlik faqat loyiha bilan belgilanmaydi.

– Jahon xalq og'zaki ijodiy xazinasida ajoyib naql bor: “Rim bir kunda qurilmagan”. Shu ma'noda yangi buniyodkorlik ishlarida Siz kabi fidoyi olimlarning ilmi tirgak bo'lishiga ishonamiz. Bu yo'lda Siz va jamoangizga yangi ilmiy yutuqlar va kuch-quvvat tilab qolamiz! Salomat bo'ling!

Vasila HABIBULLAYEVA suhbatlashdi.

OLAM OLIMI



Xideki
SIRAKAVA

Qoliplarga
sig'magan
tafakkur

HAYOT YO'LI

U 1936-yil 20-avgustda Yaponiyada, harbiy shifokor oilasida tug'ildi. 1961-yilda Tokio texnologiya institutini kimyoviy muhandislik mutaxassisligi bo'yicha tamomladi. 1966-yilda doktorlik darajasini olgach, ilmiy faoliyatini kimyoviy resurslar laboratoriyasida assistent sifatida boshladi. 1976-yilda AQSHning Pensilvaniya universitetiga taklif etildi. Bu yerda amerikalik olimlar Alan Makdiarmid va Alan Xiger bilan hamkorlik qildi. Uch olimning birgalikdagi tadqiqotlar zamonaviy materialshunoslik tarixidagi eng muhim kashfiyotlardan biriga aylandi.

KASHFIYOTNING MAZMUNI

Uzoq yillar davomida olimlar plastmassa va polimerlar elektr tokini o'tkazmaydi, degan qarashga amal qilib kelgan. Polimerlar asosan izolyator sifatida qo'llanilar va ulardan tok o'tkazuvchi material sifatida foydalanish mumkin emas, deb hisoblanardi.

Xideki Sirakava esa bu tasavvurni o'zgartirdi. U laboratoriyada yaltiroq kumushsimon poliasetilenni sintez qilishga muvaffaq bo'ldi. Keyinchalik Alan Makdiarmid va Alan Xiger birgalikda ushbu polimerga yod bug'lari ta'sir ettirilganda, uning elektr o'tkazuvchanligi yuz million marta ortishi mumkinligini aniqladilar.

1977-yilda e'lon qilingan ushbu natija kimyo va fizika fanlarida haqiqiy inqilob bo'ldi. Ilk bor polimerlar ham metall kabi elektr tokini o'tkazishi mumkinligi isbotlandi. Bu kashfiyot elektr o'tkazuvchi plastmassalarni yaratishga yo'l ochdi.

Bugun ushbu materiallar organik elektronika, quyosh batareyalari, OLED displeylar, sensorlar, akkumulyatorlar, tibbiy qurilmalar va turli elektron texnologiyalarda keng qo'llanmoqda. Elektr o'tkazuvchi polimerlar zamonaviy elektronika sanoatining muhim tarkibiy qismiga aylandi.

E'TIROF

Katta ilmiy yutuqdan keyin ham Xideki Sirakava tadqiqotlarini davom ettirdi. 1979-yilda Sukuba universitetida dotsent, 1982-yilda esa professor lavozimiga tayinlandi. Keyinchalik universitetning ilmiy-texnika sohasini boshqarib, ko'plab yosh olimlarni tarbiyaladi.

U elektr o'tkazuvchi polimerlarning yangi turlarini yaratish, ularning xususiyatlarini takomillashtirish hamda sanoatda qo'llash imkoniyatlarini kengaytirish bo'yicha tadqiqotlar olib bordi. Uning ishlari organik elektronika va nanotexnologiyalarning rivojiga katta hissa qo'shdi.

2000-yilda Xideki Sirakava Alan Xiger va Alan Makdiarmid bilan birgalikda “Elektr o'tkazuvchi polimerlarni kashf etish va rivojlantirish” sohasidagi xizmatlari uchun kimyo bo'yicha Nobel mukofotiga sazovor bo'ldi. U bundan tashqari Yaponiyaning eng yuksak davlat mukofotlaridan biri bo'lgan Madaniyat ordeni bilan ham taqdirlangan.

Jasmina ISROIL tayyorladi.



ESSE

OSMON BOSHIMIZGA TEKKANDA

Tog'lar kichraydi. Pasaydi osmon.

Yashab bo'lmaydi-ku, axir, engashib...

(Usmon Azim)

– Bilasanmi, Jo'rabek, Toshkentdan qancha uzoqlashsang, osmon pasayib borayotganday tuyuladi. O'zim ko'p bora his qilganman, Toshkentdan chiqib Boysunga yetganimda, osmon boshimga tekkanday bo'ladi. Ko'p iste'dodlarni bilaman, turfa vaj-karson: ota-ona oldida bo'lish burchini ado etish sababmi, balki kindik qoni to'kilgan tuproqqa azbaroyi sadoqatdanmi, aniq aytolmayman, qishlog'iga qaytgan. Talabaligida otash qalbi jismiga sig'may, dunyoni titrataman, deb ko'kka sapchigan bolalarni hozir ko'rsam, boshiga osmon qulaganday enkayib qolgan. Yuzining siniqligidan yuragim eziladi. To'g'risini aytсам, shuginalarning irodasiga qoyil qolaman. Ijodi birovga kerak emasligini bilsa ham, tinim bilishmaydi. Shunday talantlar borki...

– Ba'zida umr bo'yi kitob titib izlaganingni osmoni baland yerlarda, bir lahzada qaysidir tasodifiy suhbatdan yoki ijodkorlar davrasidan anglashing mumkin.

– Sen ham bu yerlarda umringni sovurma. Yaxshisi, Toshkentga qayt. Har qalay, markazda muhit bor, imkon keng, hammasiak topiladi. Muhimi, osmon boshingga tegmaydi...

Usmon aka bilan bu suhbatimiz 2010-yilning qish pallasida Ellikqal'ada bo'lib o'tgandi. Xorazm viloyati musiqali teatrida bosh rejissyor bo'lib ishlardim. Aslida, Usmon Azim bilan tanishuvimiz bundan ancha oldin bo'lgan. Chamamda, 1998-yilning bahor oylarida biz tahsil oladigan Respublika nafis san'at maktabiga o'sha paytlarda Xalq ta'limi vaziri bo'lib ishlagan chin ma'rifat fidoyisi, pedagogika ilmining bilimdoni Jo'ra G'aniyevich Yo'ldoshev bir odamni boshlab keldi. Jo'ra aka har oyda tanikli shoir-yozuvchi, madaniyat darg'alari bilan uchrashuv tashkil qilishni an'anaga aylantirgandi. Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Omon Matjon, Halima Xudoyberdiyeva kabi shoirlarni shu uchrashuvlarda ko'rganman. Jo'ra G'aniyevich maktabimizning pedagog-o'qituvchilariga ham, o'quvchilariga ham birdek qadrdon edi. O'zini shu jamoa a'zosidek tutardi. Shuning uchun u kishini kimdir amali-yu unvonlarini ta'riflab tanishtirishini kutib o'tirmadi. Tadbirni boshqarish uchun to'g'ri mikrofon oldiga bordi va mehmonni "shoir Usmon Azim" deya tanishtirdi.

O'sha yillari shoirming saylanmasi chop etilib, muxlislar tomonidan qizg'in kutib olingan, bizning maktabdoshlar orasida ham juda mashhur edi. Kamina ham Usmon Azimning qator she'rlarini yoddan bilsam-da, u kishini bir ko'rishda tanimadim, "Saylanma"dagi suratlariga o'xshatmadim, shekilli. Uchrashuv davomida shoir tomonidan otashin she'rlar o'qildi. Usmon akaning she'r o'qishining o'zi – betakror obraz. Keyin maktabdoshlarimiz o'z ijodidan namunalar o'qidi. Uchrashuv so'ngida qisqa dastxat olish marosimi bo'ldi.

Maktabimiz ijodga ixtisoslashgani tufayli shoirlar talaygina edi. Tadbir yakunlanishi bilan asta-sekin Usmon akaga taqlid qilishlar boshlandi. Ertasi kuni darsdan keyin hovliga chiqsam, yigirmadan ortiq "Usmon Azim"ni uchratdim. She'r o'qish ohangiga taqlid qilganlar-ku, mayli, qashqadaryolik do'stimning soch qo'yish-u ko'z-qoshlariyam Usmon Azimnikiga o'xshab qolibdi. Balki avval ham o'xshash bo'lgan-u biz e'tibor bermagandirmiz. Ayniqsa, shoirming bir she'ri tildan tilga ko'chdi:

Bu dunyoga bir qo'shiq

Berib ketgin, shoirim.

O'liklar uyg'onsinlar,

Uxlomasin tinliklar.

Bu satrlar, butun dunyoga "ko'rsatib qo'yish" uchun tuni bilan mijja qoqmay she'r bitish, aniqlik, yurakni yondiradigan so'z topish uchun tongni timalab otiradigan yosh ijodkorning shioriday aks-sado berardi.

Usmon aka – o'zbekning katta shoiri. Nafaqat o'zbek xalqi, balki insoniyat uchun betakror, o'lmas so'z sohibi bo'lgan shoir. U kishining she'rlaridan doim ta'sirlangan bo'lsam ham, ortiqcha so'zamollikdan tiyildim. Qolaversa, Usmon Azim she'riyatini tadqiq-u tahlil qilgan olimlarimiz bisyor. Ulardan ortiq so'z aytolmayman, haddim sig'maydi.



Fikr gar yaxshi tarbiyat topsa –

Xanjar, olmosdan bo'lur o'tkur.

Abdulla AVLONIY

2002-yil yoz faslining boshlari. San'at oliygohining 2-kursini tamomlayotgandik. Milliy teatr bosh rejissyori, O'zbekiston xalq artisti, professor Valixon Umarov yangi sahnalashtirgan spektaklining maxsus namoyishiga kursimizni taklif etdi. Kezi kelganda aytib qo'yay, kamina tahsil olgan drama rejissyorligi bo'limiga Valixon Umarov badiiy rahbarlik qilgan. Usmon Azim va Valixon Umarov ijodiy hamkorligi o'zbek teatr san'atida ko'plab o'lmas asarlar, ta'bir joiz bo'lsa, bu san'at turining tom ma'noda qariyb 20 yillik davri tarixini yaratgan.

Xullas, o'sha kuni Usmon Azim qalamiga mansub "Bir qadam yo'l" asari jamoatchilik kengashiga topshirilayotgan edi. Tomosha sokin boshlandi. Keyin sahnadagi muhit chinakam hayotning bir bo'lagiga aylandi. Tomoshabin vujud quloqqa aylangan. Asar markazida Samarqandga borishni bir umr orzu qilgan mo'ysafidning taqdiri turadi. Uch o'g'ilning otasi. Farzandlarning qo'li qayerga uzatsa yetadi. Lekin spektakl so'ngida ota Samarqandga borolmay, bandalikni bajo keltiradi. Armonda ketadi chol sho'rlik. Shu sahnalarda go'yo o'zim qatnashayotganday hayajonda o'tirgandim, tomosha yakunida o'pkam to'lib, yig'lab yuborganimni bilmay qoldim. Yonimda o'tirgan kursdoshim buni payqab, "o'g'il bolayam yig'laydimi", deb tanbeh berdi. Javob qaytargim kelmadi. Odamiylik hissi jo'sh urib turganda, "o'g'il bolalik taomillari" biroz chetroqqa o'tgandi, nazarimda. Chiroq yonganda hijolatdan, yashirincha ko'z yoshlarimni artib, atrofga razm solsam, yoshi va martabasi, hattoki, mansabidan qat'i nazar, kattalarning ham ko'zlari yoshga to'lgan ekan.

O'sha kuni muhokama bo'lmadi. Keyingi gal yopiq namoyish bo'lishi haqida o'zim eshitib qoldim. Xullas, yopiq namoyishlar ko'payib, o'sha paytlari eng yuqori idoralarda mafkuraga mas'ul bo'lgan amaldorlar, madaniyat vazirining shaxsan o'zi qatnashdi. Spektaklda narkotik savdolariga sherik bo'lgan hokim va militsiya boshlig'i obrazini qayta ishlash, mamlakat shioriga aylanib, hammaning tilidan jaranglaydigan iborani mutlaqo olib tashlash talab etildi. Usmon aka bu gap-so'zlardan tutaqib, tomoshaning biror nuqtasida uydirma yo'qligi, bildirilayotgan fikr va talablar asossizligini aytdi. "Nahotki, atrofta nimalar bo'layotganini ko'rmayapsizlar", deya kuyinib gapirganida mas'ul mafkura posbonlaridan biri, "Siz atrofni qo'ying, aytilganni qiling", deya masxaraomuz xitob qildi. Agar oraga ikki-uch kishi tushmaganida, o'sha posbonning yo burni pachaqa bo'lardi, yo ko'zi ko'karardi, yo tishi sinardi. Aytgancha, Usmon akaning shunaqa odatlari ham bor...

– Jo'rabek, men, ba'zilarning ko'ziga noshukur odam bo'lib ko'rinaman. Bugun bir gapni aytib turgan odam ertasiga mutlaqo boshqacha sayrasa, qoning qaynamasdan iloj yo'q. Ularning nazdida, men ko'p narsaga erishganim tufayli, hamma taklifiga ko'nishim kerak. O'zini ayamagan boshqani ham ayamaydi. Keyin dunyoda prinsip degan tushunchalar ham bor.

Bu gapni Usmon akadan eshitganimda, 19 yoshli yigitcha edim. Hali qulog'im ostida jaranglaydi. Bundan keyin ham shunday bo'lsa kerak. Ochig'i, bunday prinsipi doimiy amal qilish ko'pchilikning qo'lidan kelmaydi.

Tag'in muhokamaga qaytamiz. Mafkura posbonlarini ham tushunish mumkin. Xususan, amaldorlar poraxo'r bo'lmagan, shiorlarga so'zsiz itoat etiladigan, odamlar farovon hayot kechirayotgan bir paytda Usmon Azim "xol" qo'yib o'tiribdi. Bu gaplar kingadir kulgili tuyulishi mumkin, lekin aslida yig'laydigan holat. Usmon akani muhokamadan chiqarishgandan keyin rejissyor Valixon Umarovni ko'ndirishga harakat qilindi. Foydasi bo'lmagach, spektakl teatrshunos mutaxassislarning tavsiyasi bilan namoyishga ruxsat etildi.

"Bir qadam yo'l" asari uzoq yillar teatr repertuaridan mustahkam o'rin olgan. Oradan to'rt-besh yillar o'tib, spektaklni e'tibor bilan takroran tomosha qilib bir narsaga amin bo'ldim, hech mubolag'asiz, o'zbek dramaturgiyasida bunday asarga ko'zingiz tushmaydi. Dramaning o'zini mutolaa qilish ham maroqli. Asarda qahramonlar, avvalo, o'zlari, o'z taqdirilari bilan kurashadilar. Bu voqeada to'kis odam yo'q.



Hammasi katta armon bilan yashayapti-yu, go'yo hech kimga bildirmoqchi emas. Baxtli oila obrazini yaratmoqchi bo'lishadi. Lekin ichlaridan zil ketmoqda. Bunday psixologik konfliktini hamma yozuvchi ham dramaga olib kirolmaydi.

Yana bir omil, tomoshada kechadigan vaqt birligi bilan hayotiy vaqt birligi mutanosib. Asar voqeasi ham, hayot davomiyligi ham ikki soat. Buyam dramaturg mahoratidan. Kamina drama nazariyasidan ortiqcha safsata sotmoqchi emasman, faqat e'tirof etmoqchimaniki, milliy teatr san'atida inson taqdirini yoza oladigan, dramaturgiya kompozitsiyasini yaxshi tushunadigan Usmon Azimday ijodkor mavjud.

"Kunduzsiz kechalar" tarixiy fojiasi o'zbek shoiri, jadidlar moyandasi Abdulhamid Cho'lponning 100 yilligi munosabati bilan sahna olib chiqildi. Bu – shaxs va davr o'rtasidagi kurash fojiasini yorqin ko'rsata olgan asar bo'ldi. Ayniqsa, personajlar, qahramonning zamondoshlari muallif tomonidan o'sha davr

asar yaralgunicha uzoq, necha bor tongotar suhbatlashganmiz. Esdalikning avvalidagi o'git hamsuhbat turlarining birida aytilgan.

Usmon Azim – odam! Juda g'alati eshtilayotgan bo'lishi mumkin. Lekin Usmon aka chinakamiga ijodiy fazilatarga boy, atrofdagilarga befarq bo'lmagan, o'zgalar dardi bilan yashay oladigan, kerak bo'lsa, o'zining muhim yumushi qolib, kimningdir mushkulini yechish uchun oxirigacha borishga o'zida matonat topa oladigan inson. Bilmaganlar Usmon akani qaysarlik va murosasizlikda ayblashadi. Bo'lishi mumkin, faqat o'rta yolg'on aralashsa, nohaqlik bo'y ko'rsatsa, iste'dodsizlik mug'ombirona g'imirlasa, Usmon aka o'zini bosib turlamaydi. Aniqlik, bunday vaziyatda hech kimni ayamaydi.

Xullas, Milliy teatrnng majlislar zaliga mamlakat teatrlari rahbarlari, rejissyorlari, adabiy emakdoshlari, qo'yingki, teatr san'atiga aloqadorman, degan qalam ahlining barchasi Madaniyat vaziri rahbarligida "teatrn

e'tibor bermagan bo'lsa-da, irod etilgan nutqni qo'llab-qo'lliqaydigan bitta-yarimta alamzada otaxonlar topildi. Aniqlik, bittasi rosmaga yozuvchi, ikkinchisi butun umr katta yozuvchiligi jumlai jahonga ayyuhannos solib, isbotlamoqchi bo'lgan yarimta dramaturg. Bu ikki "vallomat"ning dashnomini Usmon aka vazminlik bilan oxirigacha eshitdi. Keyin o'rnidan turib, "Taqsiqlar, dahanaki hujumga o'tgandan ko'ra, tuzukroq asar yozsanglar bo'lmaydimi?" – dedi. Bularning fig'oni falakka chiqdi. "Usmon Azimni Milliy teatrdan haydash kerak!" – degan talab bilan vazirga yuzlanishdi. Usmon aka bunday yarashiqsiz vaziyatni o'g'ilbolachasiga hal qilmoqchiday tuyuldi. Kamina Usmon akani yig'ilish xonadan chiqib ketishga ko'ndirdim. Tashqariga chiqarkanmiz, Usmon aka afsus bilan dedi:

– Bular-ku, mayli, butun umrini shu alfozda yashab kelaypti. Vaqt o'tib, bugungi yoshlardan kimdir kelgusi avlodga aytib bersa bormi, isnodga qolamiz. Katta iste'dodlar ko'p hollarda yakka ravishda o'zlarining dunyosida yashaydi. Har kim bilan pachaqlashib yurmaydi. Atrofdagilardan doim o'z ichiga berkinadi. Iste'dodsizlar eng pastkash amallar, mayda g'oyalar uchun ham bir pasda to'planib, birlashadi. Yo'llarida uchraganni ko'plashib yakson qiladi. Bir mushtga aylanganlarini ko'rsang, qoyil qolmasdan ilojing yo'q. Ayniqsa, sening tan berishingni azbaroyi xohlashadi. Bunday paytda jichcha maqtab qo'ysang, asakang ketmaydi. Aksincha, qulog'ing tinchib, xotirjam yashaysan. Senga maslahat beryapman-u o'zim hech qachon shunga amal qilmaganman. Muhimi, shulardan uzoqroq bo'lgan ma'qul, jo'rajon.

Usmon akaning odamgarchiligidan yana bir lavha xayolimga keldi. Uzoq vaqt shu haqda ko'pchilikka gapirib yurdim. O'ziga minnatdorlik bildirishdan negadir tiyilganman. Go'yo, u kishiga ortiqcha mulozamat ko'rsatayotganday tuyulaveradi. Aslida, e'tirof etishga ham, ulkan tashakkur bildirishga ham arziri ish qilgandi. Ittifoq, u kishining maslahatiga amal qilib, Xorazmdan Toshkentga qaytdim. Vaziyat taqozosiga ko'ra, Milliy teatrdan spektakl sahnalashtirish imkonini tug'ildi. Hozirda teatrnng bosh rejissyori Asqar Xolmo'min bilan bir vaqtda ish boshladik. Maoshga yetib borishimizga ancha fursat bor edi. Buni anglagan Usmon aka bizni ikki oy davomida tushlik bilan siylagan. Ba'zida u kishidan yashirincha gummaxo'rlik qilmoqchi bo'lganimizda, bizni izlab topib, qo'yarda-qo'ymay oshxonaga boshlab ketardi. Och qolgan rejissyorning diydasi sinmasin, degandir-da.

Bunday o'ylab qarasam, Usmon aka bilan dil yorib, suhbatlashganimizga ham uch yil bo'libdi. Milliy teatrdan Usmon Azim qalamiga mansub Asqar Xolmo'min sahnalashtirgan "Adolat fasli" spektaklining navbatdagi namoyishiga borganimda, tomoshadan oldin teatr hovlisining bir burchagiga o'tdik. Hozir eslasam, qisqa suhbat ancha jiddiy bo'lgan ekan.

Usmon aka dabdurustdan so'rab qoldi:

– Teatrdan ketibsan, deb eshitdim?

– Qiynaldim.

– Ko'pchilik qiynalyapti, yaxshi bo'lib qolar.

– Qachon?

– Qirg'yildan beri kutaman.

– Men uncha kutolmasam kerak.

– Jo'rajon, sen talanti odamsan, agar iste'doddingni ro'yobga chiqara olmasang, faqat va faqat o'zing aybdor bo'lasan.

– Hozircha aybdorman.

– Kitob o'qiydigan odatdingni tashlamadingmi?

– O'zimiznikilarning yangi romanlarini o'qib chiqdim.

– Qanday yangiliklar bor?

– Deyarli hammasi bor gaplar, faqat...

– Xo'sh?

– Yozuvchi ukangiz bor-ku, shakkoklik qilib turadigan. O'sha juda yaxshi roman yozibdi. Badiiy ifodani ham teshib qo'yibdi.

– Ha, umi? Yaramas. Iste'dodli, mehnatkash... lekin odam-podam emas. O'zi tirikmi?

– Zo'zyapti.

– O'zidan boshqa ish kelmaganidan keyin yozadi-da.

– Qizig'i, qo'lidan kelmaganlar ham zo'zyapti.

– Ularni qo'yaver.

– Usmon aka...

– Namuncha mo'ttirading, gapir?

– Toshkentning osmoni boshingizga yaqin kelmadingmi?

– ...

– Mabodo mening boshimga tegsa, nima qilay?

– ...

– Usmon aka...

– Eshitdim!..

Buyog'i uzoq sukunat.

Jo'rabek RO'ZMETOV



HAMISHA QALBIMIZDA

Zamonaviy she'riyatimizning taniqli namoyandalardan biri, serqirra ijodkor, jamoat arbobi, O'zbekiston xalq shoiri Sharifa Salimova shu yil 5-avgust kuni 75 yoshida vafot etdi.



O'ZBEKISTON XALQ SHOIRI SHARIFA SALIMOVA

Sharifa Salimova 1951-yil 30-dekabr kuni Toshkent viloyatining Parkent qishlog'ida dunyoga keldi. 1974-yili ToshDU (hozirgi O'zbekiston Milliy universiteti)ning jurnalistika fakultetini tamomladi. O'zbekiston teleradiokompaniyasi, "Saodat" jurnali, "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasida, keyinchalik Ma'naviyat va ma'rifat markazi hamda Yozuvchilar uyushmasining Toshkent viloyat bo'limlarida ishladi.

1998–1999-yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti devonida mas'ul xodim bo'lib xizmat qildi.

U Vatanga muhabbat, milliy g'urur va iftixor, vafo va sadoqat, matonat va jasorat kabi ezgu fazilatlarni tarannum etib, jamiyatimiz hayotidagi dolzarb ma'naviy-ma'rifiy masalalarga, oila va yoshlar tarbiyasiga bag'ishlangan ko'plab asarlari, ijtimoiy faoliyati bilan el-yurtimiz o'rtasida munosib obro' topgan ijodkor edi.

O'zining 50 yildan ziyod hayotini o'zbek madaniyati ravnaqiga bag'ishlagan shoira o'tgan asrning 70-yillarida o'ziga xos betakror ovozi, samimiy, nafis she'rari bilan adabiyotga kirib keldi. Ayol qalbining go'zalligi yorqin badiiy obrazlar, poetik tasvirlar orqali teran aks ettirilgan "Hayot zavqi", "Mening bahorim" kabi dastlabki she'riy to'plamlari adabiy jamoatchilik va kitobxonlar tomonidan ijobiy baholandi.

Ijodkorning "Xizr bulogi", "Yetti oqqush", "Giyohlar bilan tillashgan inson", "Ayolga ehtiroim", "Tongga qasam", "Diydor saodati", "Olimlik va odamiylik", "Vatan suvrati", "Vafoning iffat yo'li", "Bedor tun tomchilari" kabi she'riy va publitsistik asarlari adabiyotimiz rivojiga munosib hissa bo'lib qo'shildi.

Ayni vaqtda shoira mashhur xonanda va sozandalar bilan hamkorlikda o'nlab ta'sirchan qo'shiqlar ham yaratdi. Ana shunday ijodiy hamkorlik natijasi bo'lgan "Qaddingni tik tut, ayol!", "Vatan", "Ona nidosi", "Davlatli sultonim mening", "Dunyoy", "Onajon tilim", "Sendan bir dam ayro tushmaymiz, Vatan!" singari musiqiy taronalar san'atimiz xazinasini va muxlislar qalbidan chuqur joy oldi.

Sharifa Salimovaning ijodiy mero-sida tarixiy mavzu alohida o'rin tutadi. Ayniqsa, Yangi O'zbekiston davridagi keng ko'lamli islohotlar tufayli tariximizning ilgari yopiq bo'lgan sahifalarini o'rganishi uchun keng imkoniyatlar ochilgani ijodkorni yanada ilhomlantirdi.

Bu matonatli inson keyingi yillarda og'ir xastalikni boshidan kechirganiga qaramasdan, adabiy faoliyatini qizg'in davom ettirdi. O'tgan asrning 20-yillarida, tahliliali bir sharoitda olis Germaniyaga borib o'qigan va mustabid tuzum davrida qatag'on qilingan o'zbek ayollari taqdiriga bag'ishlab, 2024 yilda "Qabohat saltanati yoxud qor qo'ynida lolalar" deb nomlangan epik ko'lamli she'riy roman yaratdi. O'zbek adabiyotida ushbu mavzudagi birinchi yirik manzuma bo'lgan bu asar nafaqat shoira ijodida, balki adabiyotimiz tadrijiya vatanparvarlik g'oyalarning yuksak namunasi sifatida e'tirof etildi.

Ijodkor mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotida ham faol ishtirok etdi. 1999–2009-yillarda Oliy Majlis deputati, Oila va ayollar muammolari komissiyasi raisi kabi mas'uliyatli lavozimlarda samarali faoliyat ko'rsatdi.

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining tajribali vajonkuyar a'zosi sifatida yosh ijodkorlarni qo'llab-quvvatlash, ijodkorlarning yangi asarlarini targ'ib etish, joylarda o'tkaziladigan adabiy-ma'rifiy uchrashuvlarda, xususan, Zomin va Do'rmon yoshlar seminarlari doirasidagi tadbirlarda doimo faollik ko'rsatib keldi.

Sharifa Salimovaning mamlakatimizda adabiyot va madaniyatni ravnaq toptirish borasidagi xizmatlari davlatimiz tomonidan munosib taqdirlandi. U "O'zbekiston Respublikasi xalq shoiri", "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi" faxriy unvonlari va "Mehnat shuhrati" ordeni bilan taqdirlangan edi.

Hassos shoira, taniqli jamoat arbobi, yoshlarning mehribon ustoz, kamtarin va samimiy inson Sharifa Salimovaning yorqin xotirasi qalblarimizda hamisha saqlanib qoladi.

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi

TAHLIL

Bir paytlar, odamlar axborotga zor mahalda oddiy xabar ham tansiq bo'lgan, odamlar yangiliklarni o'qir, muhokama qilib, fikr bildirardi. Ammo hozir – hammayoq axborot bilan to'lib-toshgan paytda muxbirlik ish bermay qoldi, bu davrda tahliliy jurnalisti-kaga ehtiyoj kattaroq. O'zbek badiiy publitsistikasining iste'dodli vakillaridan biri Alijon Abdurahmonovning yaqinda "Akademnashr" nashriyoti chop etgan "Sukunat ovozi" kitobini o'qib, prinsipial, o'z qarashlariga ega va uni hamisha, har qanday holatda ham yoqlaydigan, o'z o'ktam so'zini ayta oladigan qalamkashlar borligidan quvondim.

Muallifning eng asosiy dardi, tashvishi – o'sib kelayotgan avlodning bilimi va tarbiyasi. O'z-o'zidan, bu yo'lda asosiy vosita bo'lgan kitoblarning saviya-sajiyasi uni o'ylantiradi. Nashr etilayotgan asarlarning mazmuni, o'zbek mentalitetiga zid emasligi, hatto, oddiygina imloviy va uslubiy palapartishliklardan xoli bo'lishi – muallifning matlabi. Shuning uchun ham to'plamini "Yig'lyotgan kitoblar" degan turkum maqolalar bilan boshlaydi. Noshirlar pul ilinjida chiqarayotgan o'nlab kitoblarni astar-avrasini ag'darib tahlil qiladi, ayniqsa, bolalar dunyosiga yot, g'ayriaxloqiy g'oyalar olg'a surilgan "mahsulot"larga qarshi keskin fikrlar bildiradi.

Albatta, ayrim savodsiz noshirlarni tanqid qilish bilan ish bitmaydi. Umuman, ta'lim tizimidagi saviyasizlik bartaraf bo'lmas ekan, bolalarning bilimi ham, dunyoqarashi va hatto tarbiyasi ham oqsay berishi turgan gap. Kitob muallifi shu sohada ildiz otib ketgan nuqsonlarni ko'rsatar ekan, bir narsani xavotir bilan qayd etadi: II jahon urushidan so'ng eng og'ir iqtisodiy sharoitda yaponlar so'nggi chaqasini ham maktab uchun, farzandlari o'qishi uchun ayamagan edi; Xudo ko'rsatmasin, o'shanday ahvolda tushadigan bo'lsak, bizning ota-onalar qanday yo'l tutishar ekan?

Kitobdagi har bir maqola – o'zbek badiiy publitsistikasining yaxshi namunasi degulik ijod mevasi bo'libdi. Ayniqsa, O'zbekiston bayrog'iga bag'ishlangan "Daqiqalik efir darsi", o'zbek futboli mundialga chiqqan munosabati bilan yozilgan "Jin o'lgan kun" kabi o'nlab maqolalar kitobxonni maroqlantiribgina qo'ymay, uning vatanparvarlik tuyg'ularini jo'sh urdirishga ham qodir.

Kitob sakkizta faslga taqsimlangan saksonta asar (asosan maqola)dan iborat ekan. Siz shuncha maqolaga oddiygina sarlavha topishni bir tasavvur qilib ko'ring-a. "Siz kimdan qo'rqasiz?" deb nomlanibdi ulardan biri. Muallif o'ziga o'zi savol berib, javob qaytaradi:

– Ikki muborak hayit va boshqa bayramlarda nafsi hakalak otadigan haydovchilardan, bozorчилardan qo'rqaman;
– Masala yoki muammoga ayolini ro'para qiladigan "erkak"lardan qo'rqaman;
– Alifni kaltak deydigan "pedagog"lardan qo'rqaman;
– Bolasiga mini kredit berib, so'ng otasini surishtirib yuradigan "bankir"lardan qo'rqaman;
– Haqsizlikdan ko'z yoshlar to'kilishiga sababchi bo'lyotgan ayrim huquq posbonlaridan qo'rqaman...

Men bunday publitsistika namunasini Abdulla Qodiriyning "Kichik asarlar" degan kitobida o'qigan edim. Qodiriy o'z zamonasiga yarashiq illatlarning o'n uchtasini sanab ko'rsatgan. Yuz yildan so'ng A.Abdurahmonov ulug' adibning ana shu an'anasini chiroyli davom ettirib, bunday qo'rqinch bandlar sonini yigirma beshtaga yetkazadi. Bu yigirma besh bandning har biri – kishi bo'g'inini bo'shashtiradigan, o'zbek jamiyatini ichdan yemirayotgan illatlar. Har biri katta maqola, to'g'rirog'i, butun boshli kitob yozib taftish qilishga arziydi.

Birov mendan, jurnalistning mahorati nimada ko'rinadi, deb so'rasa, yaxshi yozishda, masalalan mohiyatiga kirib borishda, haqiqatni dalil va xolis ayta olishda, "chirsillab" turgan masala va muammolarni ilg'ay bilishda, deb aytaman. Ammo bulardan ham avval, kim bilan uchrashib suhbatlashmasin, eng noodatiy savollarni topib aytib, o'sha odamning qulfi dilini ochib yuborishga qobiliyida, degan bo'lardim. Qo'limdagi kitobda muallif el nazaridagi o'n nafar kishi bilan suhbatini bizga ilinibdi. Turli soha vakillari bo'lgan bu suhbatdoshlarni bir narsa birlashtiradi. Bu Alijon Abdurahmonov har bir kishini oddiy bir odam sifatida ko'ra olishi, uning dil qatida turgan tuyg'u va hissiyotlarini payqab, "ochiltirish"ga qobiliyidir. Masalan, Farrux Zokirov – estrada ustasi. Bu – millionlarga ma'lum. Ammo Farrux akaning eng sevgan cholg'u asboblari gitara va baraban emas, tanbur bilan sato ekanini o'qib, tong qoldim. Yoki Ahmadjon Meliboyevga berilgan bir savol va javob:

– Tasavvur qiling, Ahmadjon ismli yosh jurnalist yigitcha bugun qarshingizda o'tirgan bo'lsa, saksyon yoshli Meliboyev unga nimalar degan bo'lardi?
– "Hoy bola, shu kasbni o'z ixtiyoring bilan tanladingmi, harakat qil, qiyinchiliklardan qo'rqma, ustozlardan o'rgan, har kuni, hech bo'l-maganda, ikki-uch jumla yozib qo'y. Qo'lingni o'rgat, xo'pmi?... Endi bo'пти, boraqol, go'mma tugab qolmasin", degan bo'lardim.

Mana shu jumalalarda ustoz adibning jiddiy hayotiy xulosalari ham, dilkash mutoyibasi ham mujassam. Alijon esa uni topib taqdim eta olgan.

Men yuqorida saksonta maqolaga sarlavha topishning o'zi muammo ekanini aytgan edim. Aslida, bu jo'ngina ish: "Isrof – koni ziyon", "El dardini o'ylab", "Muqobil energiyaning foydasi", "Obodonchilik – hammamizning ishimiz", "Ekologiya buzilmasin" va hokazo. Ammo kitobga kiritilgan maqolalarning sarlavhalari butunlay boshqacha, ajabtovur. Masalan, ulardan biri "Qog'ozning uchinchi tomoni" deb ataladi. Ajab, qanaqa qog'oz ekan u, uchinchi tomoni ham bo'lsa? Darhol o'qishga tushasiz.

Zuhriddin ISOMIDDINOV

“Muallif kitobning yarmini yozadi, qolganini kitobxonlar to'ldiradi.”

Jozef KONRAD

JAHON AYVONIDA

KIRISH VA CHIQISH QOIDALARI KUCHAYTIRILADI



Xitoy 15-sentyabrdan fuqarolar uchun mamlakatdan chiqish, xorijliklar uchun esa kirish tartibiga yangi qoidalar joriy etadi. Ayrim hollarda viza yoki kirish ruxsatnomasini olish qiyinlashadi.

19 moddadan iborat nizom xorijga parvozlarni xavfsizligini ta'minlash, mamlakatdan chiqish va kirish bo'yicha arizalarga qo'yiladigan talablarni aniqlashtirish hamda vositachilik xizmatlarini tartibga solishni nazarda tutadi.

A'LOCHILAR QAYTA IMTIHON TOPSHIRADI

Meksikaning eng katta va nufuzli oliygohi bo'lmish Meksika Milliy avtonom universiteti (UNAM) 58 mingga yaqin abituriyent kirish imtihonini

qayta topshirishini e'lon qildi. Bunga imtihon natijalari g'ayritabiyyi darajada yuqori chiqqani va ommaviy ko'chirish haqidagi shubhalar sabab bo'ldi. Bu haqda The Guardian xabar berdi.



Universitet imtihon ilk bor to'liq onlayn shaklda o'tkazilganidan so'ng muammoga duch keldi va minglab natijalarni bekor qildi. Endi testlar an'anaviy tarzda, shaxsan qatnashish orqali o'tkaziladi.

HARBIYLARGA WHATSAPP TAQIQLANDI

Pokiston armiyasi o'z zobit va askarlariga rasmiy muloqotlar uchun WhatsApp'dan foydalanishni to'xtatishni va bosqichma bosqich Xitoyning WeChat messenjeriga o'tishni buyurdi. Bu haqda NDTV xabar berdi.

Ushbu qaror harbiylarning ichki muloqot



tizimidagi katta o'zgarishdan darak beradi. Armiya WhatsApp bilan bog'liq xavfsizlik xavotirlari sababli shunday chora ko'rilganini bildirdi. Ko'rsatmaga ko'ra, harbiylar WhatsApp'dan foydalanish kuzatuv ostida bo'lishi, ma'lumotlar oshkor bo'lib ketishi va rasmiy suhbatlarning buzib kirilishi xavfini oshiradi, deb hisoblaydi.

VIZA GAROVI KIRITILDI



AQSH 50 ta davlat fuqarolari uchun sayyohlik va ishbilarmonlik vizalarini

rasmiylashtirishda 20 ming dollargacha miqdorda garov talab qilish mumkin bo'lgan dasturni doimiyga aylantirdi. Bu haqda Davlat departamentining Federal reyestrda e'lon qilingan bildirishnomasida aytiladi.

Ro'yxatga kiritilgan 50 ta mamlakatdan 30 tasi Afrika davlatlaridir. Shuningdek, ular orasida Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmaniston ham bor. O'zbekiston ro'yxatga kiritilmagan.

CHUCHUK SUVGA BOY DAVLATLAR



Jahonda chuchuk suv zaxirasi eng ko'p bo'lgan mamlakatlar haqidagi yangi reyting e'lon qilindi. Tahlil umumiy suv zaxirasi emas, balki aholi jon boshiga to'g'ri keladigan qayta tiklanuvchi chuchuk suv hajmi asosida tuzilgan bo'lib, unda Islandiya katta farq bilan birinchi o'rinni egalladi.

Reytingda keyingi o'rinlarni Gayana va Surinam egallagan. Bu mamlakatlarda tropik iqlim tufayli yog'ingarchilik ko'p bo'lib, sersuv daryolar tarmog'i yaxshi rivojlangan. Shu bilan birga, aholi soni nisbatan kamligi suv resurslarining jonboshiga to'g'ri keladigan ulushini oshiradi.

ENG FAROVON MAMLAKATLAR



Britaniyaning The Legatum Institute tahlil markazi tomonidan tuzilgan navbatdagi "Farovonlik indeksi" e'lon qilindi. Unga ko'ra, Shveysariya dunyodagi eng farovon mamlakat deb topildi. Bu yilgi reyting jami 161 davlatni qamrab olgan.

Tahlil markazi reytingni tuzishda qariyb 300 ta statistik ko'rsatkichdan foydalangan. Baholashda davlat boshqaruvi va jamoat institutlari sifati, iqtisodiy muhit, tadbirkorlik uchun shart-sharoitlar, shuningdek, ta'lim, sog'liqni saqlash va inson salohiyatini rivojlantirish imkoniyatlari hisobga olingan.

Ikkinchi va uchinchi o'rinlardan mos ravishda Norvegiya hamda Irlandiya o'rin olgan.



BOQIY MEROS

Sovet qatag'oni haqida gap ketganda, odatda, ko'z oldimizga otilgan jadidlar, surgun qilingan ziyolilar, qamoqlarga tashlangan millat oydinlari, fidoyilar keladi. Ammo qatag'on faqat insonlarni emas, xalqning tarixi, xotirasi va muqaddas qadamjolarini ham nishonga olgandi.

Chunki xalqni o'z ildizidan uzish uchun uning xotirasini yo'qotish zarur edi. Buning uchun esa asrlar davomida e'zozlab kelingan ziyoratgohlar, masjidlar, madrasalar va muqaddas qadamjolar "xurofot o'chog'i" sifatida qoralandi, yopildi, vayron qilindi yoki chorva saqlash uchun qo'ra, ombor kabi xo'jalik obyektlarga aylantirildi.

Shukrki, o'tmishning bu adolatsiz siyosati tarix sahifasida qoldi. Bugun tarix o'z haqiqatini tiklamoqda. Mustaqillik davrida, ayniqsa, keyingi yillarda yurtimizdagi tarixiy va tabarruk maskanlar qayta tiklanib, xalqning ma'naviy hayotiga qaytmoqda. Bu nafaqat obidalarini ta'mirlash, balki tarixiy adolatni tiklash, millat xotirasini qayta jonlantirish ham demak.

Qatag'onga uchragan, tarixning eng qayg'uli sahifalaridan biri – Nurotaning suvi yetti iqlimga ovoza Chashmasi bo'ladi. Mustaqillik yillarida mazkur qadamjoning tarixiy, ma'naviy va madaniy ahamiyatini qayta tiklashga yuksak e'tibor qaratildi. Ayniqsa, Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning 2017 va 2019-yillarda majmuaga tashriflari bu boradagi ishlarni yangi bosqichga ko'tardi. Natijada majmua va uning atrofi keng ko'lamda obodonlashtirilib, azaliy qiyofasini tiklash, ziyoratchilar uchun munosib shart-sharoitlar yaratish yo'lida salmoqli ishlar amalga oshirildi.

Chashma majmuasining qadimiyligi, xalq hayotida tutgan o'rni tarixiy manbalarda ham o'z aksini topgan. Xususan, atqoli tarixchi Abu Bakr Narshaxiy Markaziy Osiyo tarixnavisligining ilk qadimiy durdonalaridan bo'lmish "Buxoro tarixi" asarida Nurota haqida shunday yozadi: *"Nur katta joy. Unda masjidi jome' bor. U ko'pgina rabotlar (bir-biridan ma'lum masofada joylashgan, soqchilar bilan qo'riqlanadigan qo'nish joyi)ga ega. Buxoro va boshqa joylarning odamlari har yili ziyorat uchun u yerga boradilar. Buxoro aholisi bu ishda ko'p mubolag'a qiladilar. Nur ziyoratiga borgan kishi haj qilgan (bu jumladan haj qilgan kishilar erishgan savob nazarda tutilayotir, hojilik maqomi emas) fazilatiga ega bo'ladi. U ziyoratdan qaytib kelganida tabarruk joydan kelganligi sababli shaharni havozaband (baland binolarni bezash) qilib bezatadilar.*

ZAMONDOSH

Bir kuni poyezdda bir doktorant yigit hamroh bo'ldi. Ishlaridan gapirdi. Portfelidan uchta maqolasini olib ko'rsatgan bo'ldi. Ko'rib, bittasini tanladim-da: "Kamina "Naqshbandiya" jurnali bosh muharririman. Shu maqolangizni jurnalda beramiz", dedim. Quvonib ketdi. Ammo xursandchiligi uzoq cho'zilmadi. Jurnalimiz Oliy attestatsiya komissiyasi ro'yxatiga kiritilganini eshitib, maqolasini qaytarib olsa bo'ladimi! Chunki dissertatsiyasini yoqlashi uchun OAK ro'yxatidagi jurnalda kamida ikkita maqola chiqarishi kerak-da. U bu maqolalarni xalq o'qishi uchun bitmagan. Ular dissertatsiya yoqlash uchungina xizmat qilsa, bo'ldi unga. Undan u yog'i mutlaqo qiziqtimaydi. Keyin bir o'quv qo'llanmasi yoki darslikcha chiqarib, dotsent bo'lib oladi. Kullas, u faqat ilmiy daraja va unvon olish uchungina yozadi, vassalom. Bu yigit tadqiqotchilar orasida yakka-yu yagona, deb o'ylasangiz, xato qilasiz. Ko'p. Yarmidan ham ko'p. To'rtidan uchidan ham ko'p bo'lsa, ajab emas... Afsuski, ularning aksariyati ana shu ilmiy daraja va unvon uchun yozganidan tashqari, biror narsasi bilan elga tanila olmaydi.

Biroq shunday olimlar ham borki, ular qaysi mavzuda ilmiy ish yoqlaganini ham bilmaysiz. Xalq uchun shunday ko'p ilmiy mahsulot yaratadiki, u yoki bu dissertatsiyasi

Bu Nurni boshqa viloyatlarda Nuri Buxoro deb ataydilar. Tobe'inlardan ko'p kishilar u yerga dafn etilganlar. Xudo ularning hammalaridan to qiyomatgacha rozi bo'lsin".

Aslida, ma'no suv haqida bo'lib, Narshaxiy "Buxoro shahri hali bo'lmasdan, Nur mavjud ekanligini, tabarruklik sabablari va sifatlarini" yozib qoldirgan. Chashma bo'yida madaniy qatlamning yoshi arxeologlar xulosasiga ko'ra 3500 yildan oshiq. Suvida 13 turdagi shifobaxsh ma'dan mavjud, yilning to'rt faslida ham 19,5 darajada muqim turishi ulkan sinoat. Shirmohi baliqlari esa mo'jiza. Butun bir shaharning birgina suv manbasidan ta'minlanishi hikmat.

Chashma sahnida noyob tarixiy yodgorlik – "Chil ustun" jome masjidi bor. Dastavval VIII–IX asrlarda

qarshilik harakatini yanada ruhlantirdi".

Ta'kidlash joizki, "Sudur"lik – amir tomonidan o'z davrining ma'rifat va shijoat ahliga berilgan yuksak unvon sanalgan. Eshoni Sudur o'ziga bildirilgan ishonchni oqlab, Mullo Abduqahhorning navbatdagi qarorgohini Nurotaga ko'chirishga muvaffaq bo'ladi. Bu esa milliy ozodlik harakatining Nurota hududida yanada mustahkamlanishiga xizmat qiladi. Metan Polvon, Latif devonbegi, Abdurasul Afandi, Xushvaqt, Og'a Gulbek, Yodgor Xo'ja, Siroj Xo'ja, Musoboy, Azim yuzboshi, Mulla Qarshi, Nazir yuzboshi, Asadulla qorovulbegi, Oqil qorovulbegi, Mustafao qorovulbegi, Mulla Mansur kabi qo'rboshilar o'zaro birlashdilar. Ko'p o'tmay Nurota janubi-sharqida joylashgan Chuya qishlog'idagi

Oqibatda g'alaba sovetlar – qizillar qo'lida bo'ldi va birinchi navbatda ongli, tafakkurli mahalliy xalqni yo'qotishga kirishildi. Ommaviy qatag'on boshlandi. To'qima vajlar bilan zulm va qabohatga erk berildi. Mullo Abduqahhor, Eshoni Sudur va safdoshlari "bosmachi" deb e'lon qililib, turli nayranglar bilan xalqni chalg'itishdi.

Bu siyosat tabarruk maskanlarga ham ta'sir qildi. Masjid tamoman yopilib, Chashma oyoqosti bo'ldi, "xurofot maskani" deb e'lon qilindi. Toki Mustaqillik yillariga qadar qatag'on iskanjasida qoldi. Tabiatning noyob mo'jizasi sanalgan Chashma suvining minglab kilometr yerosti yo'laklaridan soniyasiga 290 litr miqdorida oqib chiqishi, qishin-yozin mo'tadil haroratni saqlashi, hech qachon muzlamasligi, rohatbaxsh va



kodeksining 69-, 78- va 242-moddalari (RSFSR Jinoyat kodeksining 58–13, 59–3 va 173-moddalari) bilan aybdor deb topiladi.

Jinoyat ishi OGPuning 172–24-sonli ayblov xulosasi bilan sudga oshiriladi. Biroq, sud

uning ildizlari xalq xotirasida saqlanib qoldi. Mustaqillik ana shu ezgu orzularni ro'yobga chiqarish uchun tarixiy imkoniyat yaratdi. Bugun tarixiy merosni asrab-avaylash, tabarruk maskanlarni qayta tiklash va milliy qadriyatlarni yuksaltirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar ana shu uzviy davomiylikning amaliy ifodasidir.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Yangi O'zbekistonni barpo etish – bu shunchaki xohish-istak, subyektiv hodisa emas, balki tub tarixiy asoslarga ega bo'lgan, mamlakatimizdagi mavjud siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy vaziyatning o'zi taqozo etayotgan, xalqimizning asriy intilishlariga mos, uning milliy manfaatlariga to'la javob beradigan obyektiv zaruratdir."

Darhaqiqat, bu yerda "yangi" tushunchasi yangidan tarix yaratishni emas, balki millatning asriy orzu-intilishlarini, jadidlar boshlab bergan ma'rifat va taraqqiyot g'oyalari zamon talablari asosida davom ettirishni anglatadi. Binobarin, bugun yurtimizda tabarruk maskanlarni asrab-avaylash, ularni obod etish va tarixiy merosimizni qayta tiklash yo'lida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli ishlar ana shu tarixiy zaruratning amaliy ifodasidir. Samarqanddagi Imom Buxoriy yodgorlik majmuasi, Toshkentdagi Islom sivilizatsiyasi markazi, Nurotadagi Chashma majmuasi kabi muqaddas qadamjolarida olib borilayotgan bunyodkorlik ishlari xalqimizning ma'naviy merosini asrab-avaylash va tarixiy adolatni qaror toptirish yo'lidagi ezgu sa'y-harakatlarni yaqqol namoyon etmoqda.

Suyundik Mustafonurotovi, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi



“Ma'rifat – hamma o'qigan bilganlarimiz esimizdan chiqib ketgandan so'ng qolganidir.

Berres Frederik SKINNER

Faollik fazilati

ular orasida tadqiqotlaridan birgina bo'lib qoladi, xolos. Bunday olimlar uchun ilmning o'zi ko'proq qiziq, foydali faoliyat – muhim muhim. Ular yaxshi biladiki, ilm xalq uchun xizmat qilishi kerak. Har bir ishning bahosini el beradi. Yurtimizning taniqli so'zshunoslaridan biri, filologiya fanlari doktori, professor Ibrodulla Mirzayev ana shunday fidoyi olimlarimizdan biridir.

U ona tilimizdan tashqari, rus, fransuz, ingliz, fors tillarini puxta biladi. Bu uning ilmiy faoliyatida diapazon kengligini ta'minlab kelyapti. Albatta, til bilish – inson uchun juda katta boylik. Lekin o'zga bir lisonni undagi matnini tarjima qilish darajasida bilish yuksak professionallikni talab qiladi. Shu bois, olim o'zi ishlayotgan Samarqand davlat universiteti "O'zbek tili va adabiyoti" kafedrasida ilmiy tarjima laboratoriyasiga asos soldi. Mashhur sharqshunos Y.Bertelsning "Navoiy va Jomiy", "Navoiy va Attor" asarlarini o'zbek tiliga o'girdi. Taniqli rus tilshunosi V.Gakning "Fransuz tili nazariy grammatikasi", "Rus va fransuz tillarining qiyosiy tipologiyasi" darsliklarini o'zbek tiliga, Navoiyning "Muhokamat ul-lug'atayn" risolasini fransuz tiliga tarjima qildi. Gi de Mopassan, A.Kamyu, G.Appoliner, Edgar Po, A.Dotel, N.Nekrasov, N.Gumilyov,



A.Voznesenskiy, S.Yesenin, V.Visotskiy singari jahon adiblarining asarlarini ona tilimizda kitobxonlarga taqdim etdi.

I.Mirzayev va G.Nurova hamkorlikda yozgan "Rossiyada Alisher Navoiy hayoti va ijodining o'rganilishi" ("Изучение жизни и творчества Алишера Навои в России". Авторизованный перевод с английского языка. – Минск: Альфа-книга, 2022) nomli

asarning ahamiyati shundaki, bu masala hozirgacha monografik tarzda tadqiq etilmagan edi. Holbuki, buyuk ajdodimiz merosini o'rganishda rus olimlarining hissi katta. Ochig'ini aytganda, shoir ijodi namunalari dunyoning hech bir tiliga hali ruschaga o'girilgan darajada tarjima qilingani ham yo'q. 1968-yilda mutafakkir tavalludining 525 yilligi munosabati bilan Toshkentda rus tilida 10 jildlik "Asarlar" chop etilgan ham shundan dalolat beradi. Mazkur kitob xorijiy davlatlarda Alisher Navoiy hayoti va ijodini ana shunday monografik asosda o'rganish uchun o'ziga xos yo'nalishni boshlab bergani bilan diqqatga sazovordir.

Bilamizki, filologiya fani tilshunoslik va adabiyotshunoslikka bo'linadi. Biroq badiiy matn tahlili kishidan ham tilshunos, ham adabiyotshunos bo'lishni taqozo etadi. Fanning bu sintetik yo'nalishi "lingvopoetika" deyiladi. Ibrodulla domla mamlakatimizda ana shu yo'nalishning ko'zga ko'ringan vakillaridan biri hisoblanadi. Olimning "Tahliliy o'qish" darsligi ham aynan lingvopoetika sohasiga bag'ishlangan. Bu nashrdan matnini tilshunoslik va adabiyotshunoslik yutuqlari asosida tahlil qilish namunalari berilgan.

Uning tashabbusi bilan SamDuda "Filologiya" ilmiy to'plami faoliyati yo'lga qo'yildi. OAK ro'yxatiga kiritilgan "Alisher Navoiy" va "Til. Ta'lim. Tarjima" xalqaro elektron jurnallariga asos solindi. Shuningdek, u nufuzli muassasalar huzuridagi ilmiy kengash va seminarlar ekspert kengashi a'zosi sifatida faoliyat ko'rsatdi. Uning ilmiy maslahatchiligida 12 fan doktori, ilmiy rahbarligida 22 fan nomzodligi va falsafa doktori hamda 100 dan ortiq magistrlilik dissertatsiyasi himoya qilindi. Ayni paytda, olim bir qator oliy ta'lim muassasalarida qiziqarli ma'ruzalar o'qib kelmoqda.

Psixologiyada "Rejasizlik qarilikni kuchaytiradi", degan qarash bor. Faollikni fazilatga aylantirgan ustoz shu kunlarda "O'zbek tilining nazariy grammatikasi" nomli yangi kitobini nashr etish tashvishlari bilan yelib-yugurib yuribdi. U o'qigan, bir umr mehnat qilib kelayotgan universitet esa domlaning ibratli faoliyatiga bag'ishlab o'tkaziladigan "Tilshunoslik, tarjimashunoslik va lingvodidaktikaning dolzarb muammolari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy anjumanga hozirlik ko'rmoqda.

Sultonmurod OLIM, filologiya fanlari doktori, professor



ALQISSA

DIL TUBIGA INGAN

hikmatlar

ZEHN

Yetmishta tilni bilgan, 160 dan ortiq asar yozib qoldirgan ulug' alloma Abu Nasr Forobiyning "Fozil odamlar shahri" kitobini mutolaa qilishdan charchamayman. U zotning fikricha, o'zida quyidagi xislat-fazilatlarini birlashtirgan kishini axloqli deysish mumkin.

Bunday kishi: "Tanasining barcha a'zolari mukammal darajada rivojlangan va sog'lom bo'lishi kerak. Ziddiyatli masalalar mohiyatini tez va to'g'ri anglasin, so'zlovchining maqsadini, so'zlarining rost yoki yolg'onligini farqlay olsin. Xotirasi baquvvat bo'lsin, eshitganlarini yodidan chiqarmasin. Zehni biror alomatni (g'ayritabiiy holatni) avvaldan fahmlash, bu alomat nimani anglatishini (sababini) sezish darajasida bo'lsin. Nutqi ravon, talaffuzi sodda va tushunarli bo'lsin, aytmoqchi bo'lgan fikrlarini tushunish boshqalar uchun qiyin bo'lmasin. Ilm olishga, bilmagan narsalarini o'rganishga ishtiyoqda bo'lsin, bu zahmatdan charchash nimaligini bilmasin, bilmoqchi bo'lganlarini tez o'zlashtirsin. Ovqatlanishda, ichimlik iste'mol qilishda ochko'z bo'lmasin. Qimor o'yinlaridan uzoqda bo'lsin, bunday narsalar keltiradigan xursandlikdan jirkansin. Haqiqatni va haqiqat tarafdorlarini qadrlasin. Yolg'onga, yolg'on so'zlovchilarga nafrat bilan qarasin. Ruhiy g'ururi va vijdonini hamisha qadrlasin. Boylikka, pul yig'ishga jirkaniyish bilan qarasin. Yaqinlari va boshqalarga hamisha adolatli bo'lsin. Jabr va zulm o'tkazuvchilarga nafrat bilan qarasin. Odamlarga go'zal va yaxshi narsalarni hadya qilishni unutmasin. Adolatli bo'lsin, ammo qaysar bo'lmasin, adolat oldida qaysarlik qilib, dimog'dorlikka berilmasin. O'zi zarur deb bilgan narsalarning amalga oshishida qat'iyatli va qo'rqmas bo'lsin, jasurlik ko'rsatsin, ojizlik qilmasin".

HIYLA

Bir yili qosh qoraya boshlaganida vodiya qarab yo'lga chiqdim. Bir o'zim. Sherik chiqmadi. Qo'qonlik haydovchi yigit zarur ish bilan Toshkentga kelib,



uchrashadigan odamiga uchrab, to'xtamay iziga qaytayotgan ekan. Suhbatlashib ketdik. Dovondan o'tgach, bir joyda yengil tamaddi qilib oldik. Yo'l-yo'lakay gaplashmagan gapimiz qolmadi hisob. Yo'lga chiqayotganimizda: "Aka, oldinga o'tiring, gaplashib ketamiz, charchaganman, ko'zim ilinib qolmasin", degan edi, avvaliga e'tibor qilmabman, qarasam... asta mudrayapti. Hay-hay, dedim-da, qiziq-qiziq voqealar tafsilotini bir-biriga ulay boshladim. Qayerda suv ko'rinsa, mashinani to'xtatib, ichamiz, yuz-qo'limizni yuvamiz. Yarim kechada Qo'qonga yetgunimizcha yurakni hovuchlab bordim. Bunisi mayli, ammo yo'lda eng qiziq gapni men emas... haydovchi yigit aytdi. Undan eshitgan bir voqeani hali-hanuz eslab yuraman...

Bir podsho bo'lgan ekan. Podsho bo'lgandan keyin, yonida vaziri a'zam, vazirlar ham bo'ladi-da. Ammo bu podshoning boshqa podsholardan farqi – ulug' yoshdagi ustoz bo'lib, har kuni tongda – bomdod namozidan keyin saroyga kelib, podshoga bitta maslahat berib ketar ekan. Podsho ustozining maslahatlariga hamisha amal qilar, shu bois, yurtda to'kinchilik, tinchlik-xotirjamlik bo'lib, har

kuni ustoziga bir kun avvalgi maslahati evaziga xazinadan mukofot olish uchun qog'oz yozib berar ekan.

Alqissa, vazirlarning bunga g'ayirliqi kelib, podsho va uning ustozlari o'rtasini buzishga qasd qilishibdi. Bosh vazir bir kuni podshoga: "Olampanoh, bir gapni sizga aytmasam bo'lmaydi. Ustozingizni ko'pdan ko'p hurmat qilasiz, maslahatlariga quloq tutasiz, har aytgan gapiga mukofot berasiz, ammo u saroydan chiqar ekan, siz haqingizda bo'lmag'ur gaplarni aytadi", debdi. Podsho undan: "Xo'sh, qanday bo'lmag'ur gaplar ekan?" – deb so'rabdi. Vazir ovozi pastlatib: "Podshoning og'zidan qo'lansa hid keladi. Men uning oldiga kirganimda, ko'nglim ayniydi, shu bois, cho'ponimning yangi bilan og'zimni yopib gapiraman, ammo u bunga parvo qilmaydi, deydi", debdi. Podshoning jahli chiqib, bunday ig'vo gapga ishonmay, bosh vazirdan xafa bo'libdi. U bo'lsa bamaylixotir: "Ustozingiz ertaga tongda kelganida, o'zingiz bunga guvoh bo'lasiz", deb so'zida turib olibdi.

Ertasi kuni ustoz, odatdagidek, saroyga kelibdi. Podsho diqqat bilan qarasa, ustozlari to'ning yangi yopib gapirayotgan emish.

Bosh vazir to'g'ri aytgan ekan-da, deb jahl otiga minibdi. Odatiga ko'ra, xazinabonga xat yozib, ustozining qo'lga tutqazibdi. Fitnadan bexabar donishmand xazinabonning oldiga ketayotgan ekan, yo'lda fitnakor vazirlar uni ko'rib, hayron bo'lishibdi. Vaziri a'zam: hiylam o'tmabdi, debdi-da, ustozga: "Har kuni podshodan mukofot olasiz, biror marta bo'lsin, bizga uzatmaysiz, hech bo'lmasa, bugungisini bering", deb yaltoqlik qilibdi. Ustoz mukofot olinadigan qog'ozni unga uzatibdi. Vaziri a'zam uni xazinabonga bergan ekan, u qog'ozdagi yozuvni o'qibdi-da, qorovullarga ishora qilibdi, ular vaziri a'zamni ushlab, bir zunda boshini tanasidan judo qilishibdi...

Haydovchining hikoyasi shu yerga yetganida, Qo'qonga kirib keldik. Men vaziri a'zam nega o'ldirilganiga qiziqib qoldim va hikoyaning davomini diqqat bilan eshitdim.

Aslida voqea bunday bo'lgan ekan: vaziri a'zam podshoning oldidan chiqqach, jinoyi reja tuzibdi. Unga ko'ra, ertasiga ertalab, ustoz saroyga keladigan yo'ldagi xonadonlardan birida qozonga yog' solib, eski sarimsoqni qovurib turishadi. Ustozni ko'rishgach, mulozimlar unga: "Ustoz, shu xonadonda fотиha qilinadigan marosim bor, kirib o'tmasangiz bo'lmaydi, vaziri a'zam ham shu yerda, o'tib ketsangiz xafa bo'ladi", deyishadi. Ustoz ichkariga kirib, dasturxonga o'tiribdi. Fотиha o'qilgach, taom keltirilibdi. Gap nimadalgini anglagan alloma "Xayrut taomi mohazar, guftan nabiyl xayrul bashar", debdi-da, taomdan bir chimdim og'ziga solibdi. Shu sababli podshoning oldiga kirganida, og'zimdan sarimsoqning hidi kelib qolmasin, deb iymonib gapirgan ekan...

Ertasi kuni ustoz yana saroyga kelib, podshoga nasihat beribdi. Podsho: "Meni kechiring, ustozim, bir kun avval "Kimdir fisq-fasod gaplarni gapirsa, uning rost yoki bo'htonligini aniqlamaguncha bir qarorga kelmang", degandigiz. Shuncha yil nasihatlarigizdan chiqmadim. Ammo bir marta amal qilmay, o'sha kuni "Bu badkirdorning boshi tezda tanasidan judo qilinsin", deb yozib bergandim", degan ekan...

Bu nasihat tez-tez yodimga tushib turadi.

Ahmadjon MELBOYEV

HAJV



Aqli pesh donish ustodlar aytishki, bandayi yetuk o'z holicha taraqqiy topmas, aning kamoli uchun tajriba g'alviridan o'tgan hikmat javhari, soniyan, shaxsiy namuna zarur va lobiddur. Kamina xodimgiz ham gahi peshin og'ib, musicha qunushgan kezlari lohas va lanj bo'lib, ayni chog' kutilmagan va tutilmagan hayotiy pandlarga yo'liqib, ilhom iskanjasida jazbaga tushib, nos chakirilgan ilonday to'lg'oqqa tushurman. Shundoq durri guharlardan bir hovuchidan siz ham bahramand bo'ling, sodiq muxlislarim.

Kepqoling, hikmat sochay, so'mka-yu qopni to'g'rilang, Navbat talashmang ittoring, avval odobni to'g'rilang.

Qarini shod aylasangiz, xush kelurmish barchaga, Yoshni ham yo'qlab turing, illo, savobni to'g'rilang.

Qo'noqparastmiz barchamiz, hammamiz mazzaxo'rak, Mayni tejash vajhi bo'lsa, darrov chalob'ni to'g'rilang.

Ey mug'allim, domillolar, imlo debon mazgilamang, Alifbodan avvali darslik – kitobni to'g'rilang.

Magarkim, mehmon san'at sahnida yo'rg'olasa, Qulog'in o'bdan burab, betob rubobni to'g'rilang.**

Yo magar qo'nog'i qurg'ur shaydoyi miyno* esa, Aning sho'r tumshug'i sori darrov sharobni to'g'rilang.**

Magaram, tildan qolib, achchiq kekursa behayo, Ko'ndolang aylab yo'lig'a "Afrosiyob"ni to'g'rilang.

Tixirlikni etsa zohir shlagbaumg'a chirmashub, Kuf-u suf solib ayurg'ay, Mulla Xunob**ni to'g'rilang.**

Bas, kamina Arastudek aql-u zakoga to'lmisham, Uchrasa, qabulima Suqrot janobni to'g'rilang.

Yona bir donish fikr qolmish miyyam puchmog'ida, Sersavol ersa xotun, tezda juvobni to'g'rilang.

Tengin topolmay avliyo tanho o'turlar so'ppayib, Tengi yo'q jonon topilsa, Sattor Surobni to'g'rilang.

Sattor SUROB

*ayroning bir turi
** tob tashlagan
*** shisha
**** adolatparvar shinavanda so'z zargari

Husan SODIQOV chizgan karikatura.

IFTIXOR



YANGI G'OYALAR MARKAZI

O'smirligimizda poytaxtda yangi bino yo xiyobon ochilsa, havas bilan qarardik, bir borib ko'rishni orzu qilardik, viloyat yoki tumanimizda bunaqa inshootlar qurilishini tasavvur qilolmasdik. Mana, yoshlik davrimizning "eng gullagan" chog'larida gullar shahri Namanganda ham Toshkentdagidan kam bo'lmagan o'zgarishlarga guvoh bo'lyapmiz.

O'z sohamdan kelib chiqib aytadigan bo'lsam, bir necha yil avval elektron xaritaga kirib "IT-park" deb yozsak, faqat markazdagi muhtasham binoning lokatsiyasini ko'rsatardi. Bugun bunday maskanlar soni respublika bo'ylab ko'payib bormoqda. Shulardan biri Namangan viloyatida qad rostladi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev shu yil 23-iyun kuni viloyatimizga tashrifi doirasida Namangan davlat texnika universitetining sun'iy

intellekt laboratoriyasi faoliyati bilan tanishdi.

Laboratoriya tahlil, robototexnika va bionika markazlari, startap-akselerator, 9 ta "aqli" xona, 2 ta sun'iy intellekt bo'yicha tayyorgarlik xonasini o'z ichiga oladi. Bu yerda innovatsion ilmiy-amaliy loyihalarni ishlab chiqish va joriy etish bilan shug'ullanish ko'zda tutilgan. Davlatimiz rahbari ushbu tajribani kengaytirish, muhim sohalar rivojiga yoshlarning intellektual va ilmiy salohiyatini yanada keng jalb etish zarurligini ta'kidladi.

Laboratoriya sun'iy intellekt texnologiyalari, katta ma'lumotlar tahlili (Big Data), raqamli egizak (Digital Twin), geoaxborot tizimlari (GIS) va intellektual qaror qabul qilish vositalaridan foydalaniladi. Ushbu majmua faqat laboratoriya sifatida emas, balki SI maslahatchilari bilan birgalikda ta'lim, ilmiy tadqiqot va innovatsiyalar markazi, texnologiyalar transferi va startaplarni

rivojlantirishni yagona tizimga birlashtiruvchi zamonaviy ekotizim sifatida shakllantirilyapti.

Shuningdek, professor-o'qituvchilar va iqtidorli talabalar Qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga ixtisoslashgan sun'iy intellekt markazi, Transport va logistika markazi, Bino va inshootlarning zilzilabardoshligini baholash hamda Sun'iy intellekt va aqli energetika laboratoriyalari yo'nalishlari bo'yicha startap, innovatsion ilmiy-amaliy loyihalarni ishlab chiqish va joriy etish bilan shug'ullanayapti.

Biz, yoshlar mamlakatimiz ravnaqi va xalqimiz farovonligi yo'lida innovatsion g'oyalarni hayotga tatbiq qilishga hissa qo'shayotganimizdan qalbimizda iftixor hissinin tuyamiz.

Diyorbek SOATALIYEV,
"O'zbekiston belgisi"
ko'krak nishoni sohibi

Jadid
adabiy, ilmiy-ma'rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta

Bosh muharrir:
Iqbol MIRZO

Muallif fikri tahririyat fikri bilan mos kelmasligi mumkin.

Tahririyatga yuborilgan maqolalar muallifga qaytarilmaydi va ular yuzasidan izoh berilmaydi.

Gazeta 2023-yil 26-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 195115 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Mas'ul kotib: Shuhrat Azizov

Navbatchi muharrir:
Muhayyo Rustamova

Adadi – 18 454

Shundan:

Kirill yozuvida – 6 877

Lotin yozuvida – 11 577

Media kuzatuvchilar – 91 497

Buyurtma: G – 840

Hajmi: 4 bosma taboq, A2.

Nashr ko'rsatkichi – 222.

Tashkilotlar uchun – 223.

1 2 3 4 5 6

Sahifalovchilar:

Erkin Yodgorov
Nigora Tosheva



Manzili:

Toshkent shahri,
Shayxontohur tumani,
Navoiy ko'chasi, 69-uy

Telefonlar:

Qabulxona: (71) 203-24-20
Devonxona: (97) 745-03-69
jadidgzt@mail.ru (71) 203-24-17
Jadid_gazetasi@exat.uz

"Sharq" nashriyat-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi.

Bosmaxona manzili:

Toshkent shahri,
Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

Bosishga topshirish vaqti: 21:00

Bosishga topshirildi: 20:10

Sotuvda narxi erkin.



www.jadid.uz

Muassislar:



O'ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI

RESPUBLIKA MA'NAVİYAT VA MA'RIFAT MARKAZI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI

MILLIY MASS-MEDIANI QO'LLAB-QUVVATLASH VA RIVOJLANTIRISH JAMOAAT FONDI

"SHAHIDLAR XOTIRASI" JAMOAAT FONDI